1993-yilda qabul qilingan Rossiya Federatsiyasida giyohvand moddalarni nazorat qilish bo‘yicha davlat siyosati konsepsiyasiga muvofiq, giyohvand moddalarni sotish va noqonuniy iste’mol qilishning oldini olishga davlatning ustuvor vazifasidan biri sifatida qaraladi. Ushbu konsepsiyaga asosan, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi sohasidagi profilaktik tadbirlar ikki qismdan iborat: a) umumiy ogohlantirish - uning asosiy mazmuni narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi bilan bog‘liq jinoyatlarga olib keladigan sabablar va sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko‘rishdan iborat; b) giyohvand moddalarni iste’mol qilgan va oqibatda jinoyat sodir etishga moyil bo‘lgan muayyan shaxslarga nisbatan shaxsiy ogohlantirish.

Giyohvandlik vositalari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarning oldini olish mazkur jinoyatchilikka qarshi kurashishda ulkan ahamiyat kasb etadi. Ushbu jinoyatlar sodir etilishining oldini olish orqali aholining giyohvandlashuvi, u bilan bog‘liq bo‘lgan o‘lim, OIV/OITS bilan kasallanish darajasi pasayadi, giyohvandlik negizida sodir etiladigan boshqa turdagi jinoyatlar kamayadi, jamiyatda qulay ijtimoiy-ruhiy vaziyat hukmronlik qiladi, millat genofondi yaxshilanadi va h.k.

Bunday illatlarning oldini olish borasidagi ishlarda birinchi galda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari faollik ko‘rsatishi lozim. Ular surunkali alkogolizm, giyohvandlik, zaharvandlikka mubtalo bo‘lganlar, ilgari sudlanganlar, fohishalar va hokazolar hisobini yuritishlari va nazorat qilishlari zarur. Giyohvandlik vositalari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarning barvaqt profilaktikasi bosqichida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, uchastka nozirlari, din peshvolari va boshqalar alkogol, giyohvandlik vositalarini suiiste’mol qiluvchi shaxslar bilan ancha samarali profilaktika tadbirlari, individual uchrashuvlar va suhbatlar o‘tkazishlari lozim.

Tarkibida giyohvandlik vositalari bo‘lgan ekinlarni topish va yo‘q qilib tashlash ko‘rib chiqilayotgan profilaktika faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. U giyohvandlik vositalarini o‘tkazish, ularning kontrabandasi va hokazolar bilan bog‘liq g‘ayriqonuniy harakatlarning oldini olish imkonini beradi.

Giyohvandlikning oldini olish borasidagi harakatlarning samaradorligi giyohvandlarga keng ko‘lamli tarbiyaviy-profilaktik va tibbiy ta’sir ko‘rsatishni taqozo qiladi. Ayni shu sababli bunday profilaktikada o‘zaro bog‘langan quyidagi vazifalarni hal etish zarur:

– giyohvandlik vositalariga qaram shaxslarni aniqlash va ayniqsa ijtimoiy foydali mehnat bilan shug‘ullanmaydigan, voyaga yetmaganlar bilan, ya’ni “xatar zonasi”dagi barcha fuqarolar bilan individual ish olib borish;

– ilgari giyohvandlik vositalariga qaram bo‘lgan shaxslarga ularni davolash va reabilitatsiya qilish amalga oshirilganidan keyin ish va o‘qishga qaytish imkoniyatini ta’minlash;

– giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni qonunga xilof ravishda tayyorlash uchun manbalar hamda xom ashyo bilan bog‘liq imkoniyatlarni bartaraf etish.

Aholining giyohvandlik vositalari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurashda huquqni muhofaza qilish organlarga ko‘maklashish borasidagi faolligini kuchaytirish zarur. Giyohvandlikka qarshi kurash, eng avvalo oiladan, maktabdan, oliy o‘quv yurtidan boshlanishi lozim. Respublikada narkovaziyatning rivojlanishini jamoatchilikni jalb qilmasdan, faqat davlat tuzilmalarining kuchi bilan to‘xtatish mumkin emas.

Demak, ko‘p hollarda giyohvandlik vositalari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarni faqat fuqarolarning axboroti yordamida to‘xtatish mumkin. Shu sababli, fuqarolar tayyorlanayotgan jinoyat to‘g‘risida huquqni muhofaza qilish organlar va fuqarolarning mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlariga o‘z vaqtida xabar berishlari zarur bo‘ladi, shu tariqa ular avvalo o‘zini, oilasini, yaqinlarini, jamiyatni

ISSN 3030-3230

narkotijoratning salbiy oqibatlaridan asrashlari mumkin bo‘ladi.

Shu bilan birga ushbu illatlarni oldini olishda huquqiy choralarga kiruvchi quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- ichki ishlar idoralariga giyohvand moddalarning noqonuniy aylanmasi bilan bog‘liq masalalarda o‘z ixtiyori bilan murojaat etgan shaxslarga nisbatan javobgarlikdan ozod qilish, maxsus huquqlardan mahrum qilish muddatini qisqartirish;

- davolash kursini ixtiyoriy ravishda o‘tash, tibbiy tekshiruvdan ixtiyoriy o‘tish, giyohvandlik moddalari tarkibida bo‘lgan ekinlarni (yovvoyi va madaniy holda o‘sayotgan) yo‘q qilib tashlash;

- giyohvand moddalar tarkibida bo‘lgan ekinlarni ekish va o‘stirishni taqiqlash;

- giyohvandlikni tarqatilishiga omil yaratuvchi sabab va sharoitlarni bartaraf etish, jamoatchilikning taklif va mulohazalarini o‘rganish.

Giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatlarni barvaqt oldini olish maqsadida, birinchidan, ommaviy axborot vositalari, Internet saytlar orqali aholining huquqiy savodxonligini oshirish, giyohvandlik “Asr vabosi” va “Men giyohvandikka qarshiman” va boshqa rukn ostidagi teleko‘rsatuvlar, videroliklar tayyorlash orqali targ‘ibot tadbirlarini davomli tarzda o‘tkazib borish; ikkinchidan, aholi o‘rtasida, ayniqsa voyaga yetmaganlar, yoshlar o‘rtasida giyohvandlikka moyil bo‘lganlarni ro‘yxatini tuzish, ular bilan mutaxassislar hamkorligida profilaktik ishlarni olib borish; uchinchidan, giyohvandlik bilan bog‘liq har qanday huquqbuzarlik va jinoyatlarni bevosita aholi o‘rtasida “Sayyor sud” majlislarida ko‘rib chiqilishini yo‘lga qo‘yish; to‘rtinchidan, ilgari giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyati uchun sudlanib chiqqan shaxslarni bandligini ta’minlash, ma’muriy nazorat ostiga olish; beshinchidan, tarkibida giyohvandlik moddasi bo‘lgan dori-darmon vositalari bilan savdo qiluvchi dorixonalar faoliyatini o‘rganib borish, yoshlar orasida “tramadol”, “lirika” tarqalishini oldini olish; oltinchidan, aholini, ayniqsa yoshlarni giyohvandlik illatidan asrash, ular tomonidan giyohvand moddalarni iste’mol qilish holatlarining oldini olish, sog‘lom turmush tarzini yuritishga bag‘ishlangan targ‘ibot tadbirlarini tizimli asosda tashkil etish. Ushbu tadbirlarda DXX, IIB, Milliy gvardiya, adliya, bojxona, prokuratura xodimlari, viloyat narkologiya dispanseri mutaxassislarining keng ishtirokini ta’minlash, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish har bir ota-onaning, mahallaning va maktablarning asosiy vazifasi ekanligiga asosiy e’tibor qaratish lozim.

Аннотация. В статье проанализирована общая характеристика преступлений, связанных с незаконным оборотом наркотических веществ, и разработаны предложения по предотвращению этих преступлений. Ключевые слово: наркомания, наркоман, наркотические препараты, психотропические вещества, закон, карахтлик, пянства, наркотик, героин, опиум, прекурсоры.

Ключевые слово: наркомания, наркоман, наркотические препараты, психотропические вещества, закон, карахтлик, пянства, наркотик, героин, опиум, прекурсоры.

Annotation. The article analyzes the general description, main signs of the crime of illicit treatment of drugs or psychotropic substances in our country and develops proposals and recommendations for the Prevention of these crimes.

Key words: Drugs, Drugs, Drugs, Psychotropic Substances, law, numbness, intoxication, drugs, heroin, opium, precursors.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами, 2006, 41-сон, 405-модда;
2. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 18.02.2021 й., 03/21/675/0126-сон;
3. 2017 йил якуни бўйича Ўзбекистон Республикасидаги нарковазият /Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги наркотик моддаларни назорат қилиш миллий ахборот-таҳлил маркази. –Т., 2017;
4. Андижон вилояти Асака тумани ИИБ 2023 йилги умумлашма маълумотлари тўпламидан;
5. 2017 йил якуни бўйича Ўзбекистон Республикасидаги нарковазият /Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги наркотик моддаларни назорат қилиш миллий ахборот-таҳлил маркази. –Т., 2017;
6. Ўша жойда;
7. Андижон вилояти Асака тумани жиноят ишлари бўйича суди материалларидан, 2024 й.

ATROF-MUHITNI ASRASH VA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY MUAMMOLARI

Muhammadi Usmonov Bahriddinovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori, yuridik fanlar doktori

Annotatsiya: Maqolada “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili davlat dasturi mazmunidan kelib chiqib ekologik barqarorlikni ta’minlash, ekologik xavf-xatarlarning oldini olish, fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqlarini ro‘yobga chiqarish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: atrof-muhit, atrof-muhitni asrash, yashil iqtisodiyot, ekologiya, ekologik huquq, chiqindilar, o‘simlik dunyosi, hayvonot dunyosi, atmosfera havosi, suv, yer, tabiat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yangi saylangan parlamentimiz yig‘ilishida so‘zlagan ma’ruzasida 2025-yilni “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili, deb e’lon qildi. Shu munosabat bilan “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili davlat dasturi umumxalq muhokamasidan so‘ng 2025-yil 7-fevralda Prezidentimizning farmoni [1] asosida qabul qilindi.

Ushbu Davlat dasturi qabul qilinishining dolzarbligini bugungi kunda ekologik xavf-xatarlar butun dunyoda global muammoga aylanganligi, insoniyat va barcha tirik mavjudotning qulay atrof tabiiy muhitda yashashi murakkablashganligi, ya’ni atrof tabiiy muhitning ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining taqchilligi, sanitariya-epidemiologik holatning yomonlashuvi, odamlarda yurak-qon va onkologik kasalliklarning ko‘payishi, atmosfera havosida zaharli gazlar miqdorining oshishi kabi holatlar bilan izohlash mumkin. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev haqli tarzda ta’kidlaganidek, “atrof-muhit muvozanatining buzilishi, tabiiy resurslardan nomutanosib foydalanish, chiqindilarga beparvo munosabatda bo‘lish va ifloslanish ekotizimlarga va aholi salomatligi va farovonligiga, barqarorlik va davlatlar xavfsizligiga ta’sir qilib, salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. ...Tuproq, suv va havoning haddan ziyod ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi, o‘simliklar va hayvonot dunyosidagi tashvishli o‘zgarishlar ekologik muammoni taraqqiyotga yuz tutayotgan mamlakatlarning xavfsizligiga jiddiy tahdid solayotgan omillardan biriga aylantirmoqda” [2].

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, har yili atmosferaga 200 million tonnadan ziyod azot oksidi, 50 million tonnadan ortiqroq har xil uglevodorodlar chiqarilmoqda. Jahon sanoati har yili tabiatga 32 milliard kubometr ifloslangan suv, 70 million tonna zaharli gazlar va 250 million tonna changni chiqarib tashlamoqda. Toza ichimlik suvi masalasi dunyodagi eng og‘ir muammolardan biriga aylanib ulgurdi. Suv zaxiralarining, jumladan, yer usti va yer osti suvlarining keskin taqchilligi va ifloslanganligi O‘zbekiston uchun ham katta tashvish tug‘dirmoqda. Hududimizdagi daryolar, kanallar, suv omborlari va hatto yer osti suvlari ham inson faoliyati ta’siriga uchramoqda.

BMTning ma’lumotiga ko‘ra, so‘ngi 20 yil ichida sayyoramizda aholi jon boshiga chuchuk suv zaxiralari 20 foizdan ortiq qisqargan. Dunyo aholisining uchdan bir qismi, ya’ni 2,3 milliard kishi suv yetishmasligi kuzatilayotgan mamlakatlarda yashamoqda. Hozirda planetamizning uchdan bir qismida yashayotgan aholiga toza ichimlik suvi yetishmaydi. Masalan, 4 mln kishi yashaydigan Gonkong suvni quvur orqali Xitoydan oladi. Yoki Jazoir davlati ham chetdan olib kelingan suv hisobiga yashaydi. BMTning FAO tashkiloti bashoratiga ko‘ra, XXI asrning uchinchi o‘n yilligi o‘rtalariga kelib suv tanqisligi sharoitida yashaydiganlar soni 4 mlrd. kishidan oshadi. Bu holat mislsiz inqiroz va ijtimoiy halokatlarga sabab bo‘lishi tabiiydir.

Markaziy Osiyoda bu resurs tobora kamayib, mintaqada iqtisodiy muammolarni borgan sari chuqurlashtirmoqda. XX asr boshida 8 mln. kishini tashkil etgan Markaziy Osiyo aholisi bugungi kunda 75 mln. dan oshdi, 2030 yilga borib esa 80 mln. ga yetishi taxmin qilinmoqda. Kelgusi o‘n yillikda iqlim o‘zgarishi va qo‘shni davlatlarda suv iste’molining oshishi O‘zbekistonning Amudaryo va Sirdaryodan suv olishini kamayishiga olib keladi va buning oqibatida qurg‘oqchilik va

ISSN 3030-3230

cho‘llanish jarayoni yanada kuchayib, aholining turmush darajasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Suv taqchilligining oldini olishning yo‘llaridan biri, bu suvni tejovchi texnologiyalarni keng qo‘llash hisoblanadi. Mamlakatimizda chuchuk suvlarning 90 foizi qishloq xo‘jaligida ishlatilmoqda. Bu ilg‘or davlatlarga nisbatan 2,5 barobar ko‘pdir. Shu bois qishloq xo‘jaligidi tomchilatib, turli innovatsion usullarda sug‘orishga o‘tish juda muhim ahamiyatga ega. Hozirda mamlakatimizda 4,3 mln. gektar sug‘oriladigan yerning 500 ming gektarida tomchilatib sug‘orish texnologiyalari joriy qilingan. 2026-yilga borib suv tejovchi texnologiyalar maydonini 2 mln. gektarga yetkazish rejalashtirilgan.

Suvdan foydalanishdagi isrofgarchilikning yana bir sababi kanallarning foydali ish koeffitsentining pastligi va ichki tarmoqlarda suvning ko‘p yo‘qotilishidir. Buning oqibatida qishloq xo‘jaligida har yili 4 mlrd. 800 mln. dollor kam daromad olinyapti. Shu sababdan, suvni tejashning yo‘llaridan biri kanallarni betonlashtirish hisoblanadi. Shu maqsadda davlat budjetidan mlrdlab so‘m pul mablag‘lari ajratilmoqda.

Suv isrofgarchiligidagi yana bir muhim muammo sel suvlaridan foydalanishdagi kamchiliklardir. Mamlakatimizda yiliga 1 mlrd. kub metr sel suvlari behuda oqib ketmoqda. Shu sababdan, mamlakatimizda sel suvlarini kichik havzalarda jamg‘arish masalasi bo‘yicha chora-tadbirlar belgilanmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasida “Suv resurslarini tejash va atrof muhitni muhofaza qilish” masalasi mamlakat taraqqiyotining 5 ta ustuvor yo‘nalishi orasida alohida mustaqil, 3-ustuvor yo‘nalish sifatida ajratib ko‘rsatildi. Ushbu ustuvor yo‘nalishda suv resurslarini tejash bo‘yicha islohotlarning 4 ta mustaqil hamda ularga erishish bo‘yicha 18 ta maqsadli ko‘rsatkichlar [3] belgilab berildi.

Ekologik xavfsizlikni ta’minlash va barqaror rivojlanishni amalga oshirishda O‘zbekiston davlatining ekologik siyosati, atrof tabiiy muhitni sog‘lomlashtirishga bag‘ishlangan ko‘plab normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi va ularning ijrosiga qaratilgan say-harakatlar ijobiy natijalarni berishi shubhasizdir. Chunonchi, ekologik xavfsizlikni ta’minlashda yangilangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan ekologik munosabatlarni tartibga solishga bag‘ishlangan normalar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Asosiy qonunimizning 25-moddasida insonning yashash huquqi va 49-moddasida insonning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqi [4]ning o‘rnatilishi uning salomatligini saqlash, turli ekologik xavf-xatar ta’siridan himoya etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yurtboshimizning “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” [5]gi farmonida “mamlakatimizda aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish, atrof tabiiy muhitning ifloslanish darajasini baholash mexanizmlarini takomillashtirish, «Yashil makon» umummilliy loyihasini amalga oshirish, Respublika hududlarida o‘rmonlar maydonini kengaytirish” kabi chora-tadbirlarning belgilanishi ekologik xavfsizlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son farmoni asosida “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi” [6]da iqtisodiyotni ekologiyalashtirish, atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat nazoratini takomillashtirish, zaharli kimyoviy va radioaktiv moddalardan ekologik xavfsiz foydalanishni ta’minlash vazifalari belgilab berildi. Ushbu konsepsiyaning amalga oshirilishi natijasida 2030-yilda Orol dengizining qurigan tubida o‘rmonzorlar maydoni uning jami hududiga nisbatan 60 foizgacha yetkaziladi, qishloq xo‘jaligida suv resurslarini yo‘qotish 10 foizga kamaytiriladi, qishloq xo‘jaligida suv iste’moli (solishtirma gektarga nisbatan) 15 foizga kamaytiriladi, oqava suvlarini tozalash samaradorligi 80 foizgacha oshiriladi, atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishi 10 foizga kamayadi, o‘rmonzorlar bilan qoplangan o‘rmon fondi hududi 4,5 mln gektargacha kengaytiriladi, hosil bo‘ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash hajmi 65 foizgacha ko‘payadi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” [7]gi qaroriga ko‘ra, 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o‘tish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini

joriy etish, yiliga 200 million ko‘chat ekish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish vazifalari belgilab berildi.

Ekologik muammolarni hal qilish, ekologik barqarorlikka erishish, inson salomatligini saqlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni asosida 2025-yil 7-fevralda qabul qilingan “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili davlat dasturi [8] alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu dasturda ekologik barqarorlikka erishishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, ko‘chalarning yashillik darajasini oshirish, aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish, tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, o‘simlik va hayvonot dunyosini asrash, ko‘paytirish va keyingi avlodga yetkazish hamda biologik xilma-xillikni saqlash, “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni iqlim o‘zgarishiga moslashtirish, hududlarda kichik va mikro gidroelektr stansiyalari tarmog‘ini kengaytirish, aholi xonadonlarida quyosh panellarini o‘rnatishni rag‘batlantirish kabilar belgilandi.

Ushbu Dasturda aholi uchun barpo etilayotgan piyodalar va alohida velosiped yo‘laklari bo‘yida daraxtlar va o‘simliklarni ekish orqali “Soyali sayr ko‘chalari” tarmog‘ini yaratish, sohil va daryo bo‘ylarida 80 ta infratuzilma obyekti va 110 kilometrdan ortiq sog‘lomlashtirish yo‘laklari qurish, yomg‘ir va oqova suvlardan samarali foydalanish, mahallalardagi daraxtlarni zamonaviy suv tejovchi texnologiyalar orqali sug‘orish tizimini joriy etish natijasida yashillik darajasini oshirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasi va “Mening bog‘im” loyihasi doirasida 200 million tup daraxt hamda butalar ekish, Orol dengizi tubida 100 ming gektar “yashil maydon” barpo etish va Orolbo‘yi mintaqasidagi o‘rmonzorlarni 2,1 million gektarga yetkazish, o‘rmon bilan qoplangan maydonlar 4,1 million gektarga va muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar 14,5 foizgacha kengaytirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida e’tirof etildi.

Shuningdek, 2025 yilda aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish maqsadida mamlakatimizda “Ekofaol fuqaro” hayot tarzini keng targ‘ib qilishga qaratilgan “Bir million yashil oila” umummilliy harakati yo‘lga qo‘yiladi. Bunda asosiy tamoyillar sifatida aholi orasida tibbiy madaniyatni oshirish, sog‘lom ovqatlanish, kunlik yurish va yugurishni targ‘ib qilish, “yashil transportda”, shu jumladan, velosipedda harakatlanishni rag‘batlantirish, suv, gaz va elektr energiyasi resurslaridan oqilona foydalanishga asosiy e’tibor qaratiladi.

Ekologik tamoyillarni o‘zining kundalik hayotiga joriy etishda yuqori ko‘rsatkichlarga erishganlarga “Ekofaol fuqaro” maqomi beriladi hamda ular uchun davlat xizmatlaridan foydalanishda 10 foiz chegirma va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan banklarda iste’mol kreditini olishda chegirma taqdim etiladi, oilaning barcha voyaga yetgan a’zolari “Ekofaol fuqaro” maqomini olganda, ushbu oilaga “yashil oila” maqomi beriladi hamda ularga har yili ochiq tanlov orqali 14 ta elektromobil beriladi.

Aholisining yarmi “yashil oila” maqomini olgan mahallalarda “Eng toza mahalla” va “Eng yashil mahalla” tanlovlari o‘tkaziladi va g‘olib bo‘lgan mahallalar jamg‘armasiga mahalla aholisining takliflarini o‘rganganholda mahallaning ichki infratuzilmasini yanada yaxshilash tadbirlari moliyalashtiriladi, bu mablag‘lar yo‘llarni ta’mirlash, energotejamkor yoritish uskunalarini o‘rnatish, bolalar maydonchasini qurish, “yashil bog‘” yaratish va o‘rindiqlar o‘rnatish, chiqindi yig‘ish maydonchalarini qurish, chiqindi qutilari va konteynerlarini o‘rnatishga safarbar etiladi.

2025-yil 1-maydan boshlab Toshkent va Nukus shaharlari hamda viloyat markazlarida asbest, sement ishlab chiqarish, shlam va shlaklar, teri-ko‘nchilik, parrandachilik fabrikalari, qora va rangli metallurgiya zavodlari, tarkibida zaharli aralashmalar bo‘lgan oyna, zaharli kimyoviy moddalar bilan ishlash, xavflilik darajasining I va II sinfiga mansub chiqindilarni qayta ishlash va yoqish korxonalari yo‘nalishlarda yangi loyihalarni amalga oshirish taqiqlanadi. Aholini sifatli, ekologik toza va arzon yoqilg‘i bilan ta’minlagan holda AI–80 rusumli avtomobil yoqilg‘isidan foydalanish va sotish cheklanadi, respublikaning barcha hududlarida joylashgan issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqarish korxonalariga yoqilg‘i sifatida mazutdan foydalanish to‘liq taqiqlanadi. 2025 yil 1 iyuldan boshlab ko‘p qavatli uylar massivlaridagi tuproq va yashil qoplamali umumiy foydalanishdagi hududlarni o‘zboshimchalik bilan betonlashtirganlik, qurilma va konstruksiyalarni o‘rnatganlik uchun javobgarlik choralari kuchaytiriladi.

O‘simlik va hayvonot dunyosini asrash, ko‘paytirish va ularni keyingi avlodga yetkazish maqsadida 2025-yil 1-sentabrdan boshlab yovvoyi holda o‘suvchi o‘simliklarni yig‘ish va tayyorlash uchun tasdiqlangan kvotalar hamda o‘simlik dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish uchun

ISSN 3030-3230

ruxsatnomalarni elektron auksion orqali berish tartibi joriy etiladi. Kvotalar Fanlar akademiyasi tomonidan har yili aniqlanadigan o‘simlik zaxirasi asosida shakllantirilib, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi va auksionga chiqariladi.

Ma’lumki, fuqarolar normal va sog‘lom hayot kechirishlari, mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishlari uchun ularni o‘rab turgan atrof tabiiy muhit - atmosfera havosi, suv, o‘simlik dunyosi, tuproq toza, inson sog‘lig‘iga zararli ta’sir etmaydigan sifat va holatda bo‘lishi lozim. “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili davlat dasturida belgilangan chora-tadbirlar shu maqsadlarni taminlashga xizmat qiladi.

Ekologik barqarorlikni ta’minlashning eng samarali vositalaridan biri fuqarolarning ekologik madaniyatini yuksaltirish hisoblanadi. Har bir ota-ona farzandini tabiatni sevish, ardoqlash, yerga, tuproqqa mehr qo‘yish, o‘simligu-jonivorlarni ardoqlashga o‘rgatishi lozim. Oila, bolalar bog‘chasi, maktabdan boshlab ekologik ta’lim-tarbiyaga alohida e’tibor berilishi kerak. Toki bolalar go‘dakligidanoq tabiatga nisbatan bemehrlik og‘ir oqibatlarga olib kelishini tushunishi zarur.

Tabiatga mehri kuchli bo‘lgan odamning o‘z xalqiga, Vataniga bo‘lgan mehr-muhabbati ham yuksak bo‘ladi. Qalbida mehr-shafqat, rahmdillik singari yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar ustuvorlik qiladigan insonlar tabiatdagi har bir mavjudot va hodisaga oqilona munosabatda bo‘lishga harakat qiladi. U daraxt shoxini sindirmaydi, axlat tashlab suvni iflos qilmaydi, havoning bulg‘anishiga yo‘l qo‘ymaydi, yam-yashil maysalarni payhon qilmaydi, aksincha bog‘lar yaratadi, obodonchilik ishlari bilan shug‘ullanadi, mehnati, aql-idroki va tafakkurini ona tabiatni muhofaza qilishga bag‘ishlaydi. Bularning barchasi oqibatda atrof tabiiy muhitni asrashga, mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы анализа обеспечения экологической безопасности, предотвращения экологических угроз и катастроф, а также осуществления права граждан на благоприятную окружающую природную среду, исходя из содержания года “Охраны окружающей среды” и “Зеленой экономики”.

Ключевые слова: окружающая среда, охрана окружающей среды, зеленая экономика, экология, экологическое право, отходы, растительный мир, животный мир, атмосферный воздух, вода, земля, природа.

Annotation. “The article analyzes the issues of preserving the environment and ensuring environmental stability based on the content of the state program of the year “green economy”, preventing environmental risks, realizing the rights of citizens to have a favorable environmental natural environment.

Key words: Environment, Environmental Preservation, green economy, ecology, environmental law, waste, flora, fauna, atmospheric air, water, earth, nature.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Халқ сўзи, 2025 йил 8 февраль;
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Т.: Ўзбекистон, 2021, 383, 389-бетлар;
3. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082;
4. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2023;
5. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082;
6. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.10.2019 й., 06/19/5863/3979-сон; 13.11.2020 й., 06/20/6110/1512-сон; 17.03.2021 й., 06/21/6188/0216-сон;
7. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 03.12.2022 й., 07/22/436/1061-сон;
8. Халқ сўзи, 2025 йил 8 февраль.

FUQAROLIK SUD ISHLARINI YURITISHNI JADALLASHTIRISHDA ADVOKATNING ROLI: NAZARIY VA AMALIY MASALALAR

Davletov O'tkir Matmurodovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
kafedra boshlig'ining o'rinbosari,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. Maqolada sud jarayonini tezlashtirishda samarali tayyorgarlik, samarali muloqot, texnologiyalardan strategik foydalanish, nizolarni hal qilishning muqobil usullarini ko'rib chiqish, rejalashtirish va vaqtni boshqarish kombinatsiyasining o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Shu bilan bir qatorda, advokat tomonidan sud jarayonini qasddan kechiktirishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan omillar hamda sud ishlarini tezlashtirishga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan bir qancha holatlar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Fuqarolik sud ishlari, ish yuritishni jadallashtirish, tezkor sud jarayoni, samarali tayyorgarlik, samarali muloqot, texnologiyalardan strategik foydalanish, muqobil usullar, vaqtni boshqarish, ish yuritishni kechiktirish, advokat faoliyati hamda xorijiy tajriba.

"Men advokatman, lekin men advokatlarni umuman yoqtirmayman, chunki boshqalar ularni yoqtirmaydi va buning sabablaridan biri sud jarayonini kechiktirishda o'ynaydigan o'yinlardir. Ishni kechiktirishning "ajoyib" usuli – bu ishning qarama-qarshi tomonini e'tiborsiz qoldirishdir" [1].

Jeyson Ellis Anderson

Fuqarolik sud ishlarini yuritishni "qanday qilib" jadallashtirish (tezlashtirish) mumkin, deb so'rashdan oldin, "nima uchun" deb savol berishingiz kerak. Ko'p sud ishlari shunchaki kechiktirilayotgandek tuyuladi. Chunki, ish qancha uzoq davom etsa, advokatlar shuncha ko'p pul oladi! Ular buni ko'pincha to'xtatib turish taktikasi asosida amalga oshiradilar [2]. Taraflar har doim "tezkor sud jarayonini" talab qilish huquqiga ega. Ammo, haqiqat shundaki, ko'p hollarda advokat sud jarayonini iloji boricha uzoqroq muddatga kechiktirishni, vaqt yo'qotish va voqealarni uzaytirishni xohlaydi [3]. Bu esa boshqa tomonni o'z ishini ko'rib chiqish uchun ortiqcha to'lov va xarajatlarni to'lashda davom eta olmasligi yoki xohlamasligi sababli moliyaviy qiyinchiliklar tufayli chekinishga majbur qilishi mumkin.

Advokatlar sud jarayonlarini tezlashtirishga intilayotganda har doim axloq va qonun doirasida harakat qilishlari, mijozning qonuniy huquq va manfaatlariga zarar yetkazmasligi kerak. Ular, faqat sudyani qoniqtiradigan va ishonchli dalillar bilan isbotlashi mumkin bo'lgan faktlarni taqdim etish orqali sud ishlarini tezlashtirishi mumkin. Sud ikkala tomonning roziligi bilan ishni ko'rish sanasini belgilash orqali ishni keyinga qoldirish amaliyotiga imkon qadar yo'l qo'ymaslik kerak.

Men mijozlarning sud ishlarini yuritishni kechiktirish bilan bog'liq tashvishlarini tushunaman. Agar sizning advokatingiz bunday noqonuniy va axloqsiz xatti-harakatlar bilan shug'ullanayotgan bo'lsa, uni boshqa advokat bilan almashtirib, xulq-atvori ustidan advokatlar palatasiga shikoyat yozishingiz mumkin[4].

Shu o'rinda, advokatning ishingizni qasddan kechiktirishiga quyidagi omillar ta'sir qilishi mumkin:

birinchidan, muloqotning etishmasligi. Advokat qo'ng'iroqlaringizga yoki elektron pochta xabarlaringizga o'z vaqtida javob bermasa yoki noaniq javoblar bersa;

ikkinchidan, aniq ish strategiyasi yoki vaqt jadvali yo'qligi. Vakolatli advokat sizning ishingiz uchun aniq strategiya va vaqt jadvaliga ega bo'lishi kerak. Agar sizning advokatingiz yo'l xaritasini taqdim qilmagan bo'lsa yoki strategiya tushuntirishsiz o'zgarib tursa;

uchinchidan, asossiz tez-tez kechikishlar. Huquqiy jarayonlar turli qonuniy sabablarga ko'ra kechikishlarga duch kelishi mumkin. Biroq, agar sizning advokatingiz tez-tez yig'ilishlarni, sud jarayonini yoki protsessual muddatlarni asosli tushuntirishsiz qoldirsa;

to'rtinchidan, sizning fikringiz yoki tashvishlaringizni e'tiborsiz qoldirish. Agar sizning advokatingiz ishning davomiyligi haqidagi savollaringiz yoki tashvishlaringizni doimiy ravishda e'tiborsiz qoldirsa yoki muhim qarorlar

ISSN 3030-3230

bo‘yicha sizning fikringizni hisobga olmasa;

beshinchidan, hisob-kitoblarning nomuvofiqligi. Agar noaniq vazifalar uchun to‘lovlarni sezsangiz yoki ishning o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishiga to‘g‘ri kelmaydigan muddatlarning qo‘llanilishi kuzatilsa.

Agar advokatingiz ishingizni ataylab kechiktirib kelayotganligiga shubha qilsangiz, boshqa advokatdan ikkinchi fikrni olishni o‘ylab ko‘ring. Ular vaqt doirasi oqilona yoki ortiqcha kechikishlar mavjudligi haqida xolis nuqtai nazarni taqdim etishi mumkin.

Shuni unutmang, har bir ish o‘ziga xos bo‘lib, murakkabligi va davomiyligi bo‘yicha bir biridan farq qilishi mumkin. Ishingizning borishi va kechikishlar sabablarini tushunish uchun advokatingiz bilan ochiq va muntazam muloqotda bo‘lish muhimdir. Agar sizning ishingiz qanday ko‘rib chiqilayotgani haqida tashvishlansangiz bu haqda bevosita advokatingizga murojaat qiling. Agar siz hali ham qoniqmasangiz, advokatlarni almashtirish huquqiga egasiz. Biroq, bu qaror sizning ishingizga potentsial ta’sirni hisobga olgan holda ehtiyotkorlik bilan qabul qilinishi kerak.

Bizning fikrimizcha, sud jarayonini tezlashtirish ko‘pincha mijozlarning manfaatlariga mos keladi, lekin u ishni yetarli darajada tayyorlash va taqdim etish zarurati bilan muvozanatli bo‘lishi kerak. Qolaversa, ishni sud muhokamasiga tayyorlash bosqichida ishda ishtirok etuvchi shaxslar (bundan taraflar va uchinchi shaxslar mustasno) tomonidan dalillar yoki dalillarning mazmunini asoslovchi faktlarni ixtiyoriy taqdim etganligi uchun ularni rag‘batlantirish amaliyotiga o‘tish kerak. Bular ham jarayonini tezlashtirishga olib kelishi mumkin.

Advokatlar sud jarayonida turli strategiya va amaliyotlarni qo‘llash orqali ishlarni tezlashtirishda hal qiluvchi rol o‘ynashi mumkin. Bu erda advokatlar sud ishlarini tezlashtirishga hissa qo‘shishlari mumkin bo‘lgan bir necha usullar mavjud:[5]

Samarali tayyorgarlik:

ishni sud muhokamasiga tayyorlash bosqichining o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi;

ish fayllari, dalillar va hujjatlar bilan ishlashda tartibli bo‘lish;

ish va hujjatlarni samarali boshqarish va tartibga solish;

aniq va yaxshi tuzilgan vaziyat strategiyasini ishlab chiqish.

Samarali muloqot:

mijozlar huquqiy jarayonni, muddat va ishdagi rolini hamda kerakli ma’lumotlarni zudlik bilan taqdim etishlari va ulardan nima talab qilinishini tushunishlari uchun ular bilan ochiq va samarali muloqot olib borish;

nizolarni va protsessual masalalarni samarali hal qilish uchun qarama-qarshi advokat bilan hamkorlik va professional munosabatlarni saqlash;

axborot almashishni osonlashtirish va keraksiz kechikishlarning oldini olish uchun qarshi advokat bilan muloqot qilish.

Texnologiyadan foydalanish:

ishlarni yanada samarali boshqarish uchun huquqiy texnologiya vositalarini, jumladan, elektron ariza berish, elektron kashfiyotlar va ishlarni boshqarish dasturlarini qo‘llash;

ish vaqti va xarajatlarini kamaytirish uchun zarur bo‘lganda virtual sud majlislaridan foydalanish.

Nizolarni muqobil hal qilish:

tomonlarni kelishuv bitimini yoki mediativ kelishuvni tuzishga, boshqa muqobil variantlarni ko‘rib chiqishga undash;

uzoq davom etadigan “tinglovlar”ga vaqt sarflashning oldini olish va asossiz nizolarni tugatish;

sud tomonidan kelishuv konferensiyalarini tashkil etish.

Muzokaralar:

nizolarni hal qilishda vositachilik yoki hakamlik sudi imkoniyatlaridan keng foydalinish;

nizolarni sudgacha hal qilish uchun qarama-qarshi tomonlar bilan vijdonli muzokaralar olib borish.

Mijoz bilan hamkorlik:

mijozlarni kerakli ma’lumotlar (hujjatlar)ni zudlik bilan taqdim etishga undash;

mijozlarning sud qarorlari va muddatlariga rioya qilishlarini ta’minlash.

Oddiylashtirilgan huquqiy dalillar:

E’tiborni eng muhim va dolzarb huquqiy masalalarga qaratish;

sud jarayonini uzaytirishi mumkin bo‘lgan o‘ta murakkab dalillardan qochish;

sud qarorini buzishi mumkin bo‘lgan keraksiz yoki ahamiyatsiz harakatlardan tiyilish;

keraksiz kechikishlar va tortishuvlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun kerakli dalillarni to‘plash.

Ishning ustuvorligi:

ishlarning dolzarbligi va ahamiyatiga qarab ustuvorligini belgilash;

yuqori darajadagi masalalarga ko‘proq resurslarni ajratish;

ishning mohiyati va zaif tomonlarini erta baholash.

Rejalashtirish va vaqtni boshqarish:

sud majlislari va boshqa sud jarayonlarini

rejalashtirishda faol bo‘lish;

vaqtdan unumli foydalanish (masalan: bahslarda ixcham bo‘lish va keraksiz tanaffuslarga yo‘l qo‘ymaslik).

O‘rganilgan xorijiy davlatlar tajribasiga ko‘ra, advokatlar sud ishlarini yuritishni jadallashtirish (tezlashtirish)dagi samarali taktikalari ro‘yxatida keltirilgan beshta xususiyat [6] ham alohida ahamiyatga ega.

Ovoz – ohang, tembr. Ushbu turkumga tovush, talaffuz, so‘z tanlash, yetkazib berish va bir nechta tegishli sohalar kiradi.

Xulq-atvor – bu xususiyat muayyan vaziyatning ehtiyojlariga qarab boshqarilishi va o‘zgartirilishi mumkin. Ushbu turkumga sudda qanday yurish-turish yoki harakat qilish, jismoniy xulq-atvor kiradi. Shuningdek, bu turkum guvohga bo‘lgan munosabatni, sudya va qarshi advokat bilan o‘zaro munosabatni, cheklangan bo‘lsa-da, sudyaning o‘zi bilan o‘zaro munosabatni o‘z ichiga olishi mumkin.

Til taktikasi – so‘zlarni, kontekstni, sintaksisni va taqdimotni tanlash. Bunda asosiy g‘oya hakamlar hay’ati bilan samarali muloqot qilish va o‘z pozitsiyangizni bildirish juda muhim.

Nuqtaga nisbatan pozitsiya – bu odatiy xatti-harakatlaringizning bir qismi sifatida sudyaga, ishda ishtirok etuvchi shaxslar va boshqa ishtirokchilarga nisbatan o‘z pozitsiyangizdan samarali foydalanish imkonini berishi mumkin.

Tekshiruvning uzunligi – guvohning xususiyatlaridan foydalana olish har qanday sud hay’atining muhim taktik element hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, har bir guvohni so‘roq qilishda savollarning uzunligi yoki murakkabligi nazorat qilinishi kerak. Bularning barchasi umumiy taqdimotning muhim qismidir. Agar, advokat tomonidan guvohning javob berish uslubi nazorat qilinsa, taqdimotni mijozi foydasiga hal qilinishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, sud jarayonini tezlashtirish samarali tayyorgarlik, samarali muloqot, texnologiyalardan strategik foydalanish, nizolarni hal qilishning muqobil usullarini ko‘rib chiqish, rejalashtirish va vaqtni boshqarish kombinatsiyasidan samarali foydalanish talab etadi.

Аннотация. В статье рассматриваются конкретные аспекты эффективного обучения, эффективного обшения, стратегического использования технологий, рассмотрения альтернативних методов разрешения споров, а также сочетания планирования и управления временем для ускорения судебного разбирательства. В качестве альтернативы были изучены факторы, которые могут привести к преднамеренной задержке судебного разбирательства адвокатом, а также несколько обстоятельств, которые могут способствовать ускорению судебного разбирательства.

Ключевые слова: Гражданское правосудие, ускорение производства по делу, быстрое судебное разбирательство, эффективное обучение, эффективное обшение, стратегическое исползование технологий, альтернативные методы, тайм-менеджмент, отсрочка производства по делу, работа юриста, а также зарубежный опыт.

Annotation. The article examines specific aspects of effective learning, effective communication, strategic use of technology, consideration of alternative dispute resolution methods, as well as a combination of planning and time management to speed up litigation. Alternatively, the factors that may lead to deliberate delay of the trial by a lawyer were studied, as well as several circumstances that may contribute to speeding up the trial.

Key words: Civil justice, acceleration of proceedings, fast trial, effective training, effective communication, strategic use of technology, alternative methods, time management, postponement of proceedings, lawyer’s work, as well as foreign experience.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eric Johnson. Divorce Attorney since 1996 at Utah Family Law, LCAuthor has 1.9K answers and 4.6M answer views.
2. Attorney Mike. Personal Injury Lawyer for 25+Years at Chionuma Law FirmAuthor has 14.4 K answers and 4.3 M answer viewsJan 6.
3. Bruce Spielbauer. Author has 22.2K answers and 107.4M answer views8mo
4. httpswww.quora.com How-could-lawyers-speed-up-court-cases.
5. Hanesh Kumar. Advocate at High Court of Himachal Pradesh (2023–present)8mo
6. Carl Franklin. JD and PhD. CJ Program Coordinator, Ferrum College, VAAuthor has 3.2K answers and 6.4 M answer views5y

ISSN 3030-3230

ИСТОРИКО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФОРМИРОВАНИЯ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ В КОНТЕКСТЕ ВОЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Имиров Савердин Карлович,
начальник факультета Национальной гвардии
Национального Университета обороны Республики Казахстан, магистр,
Астана, Республика Казахстан

Аннотация. В данной статье проводится историко-педагогический и методологический анализ формирования правовой культуры с целью разработки научно обоснованных подходов к ее совершенствованию среди курсантов военных вузов в современных условиях. В эпоху глобализации и стремительного научно-технического прогресса вопросы правовой культуры приобретают особую актуальность, так как она является неотъемлемой частью общественного сознания и правосознания граждан. В Узбекистане и Казахстане на современном этапе развития наблюдается рост социально-правовой активности населения, что свидетельствует о формировании новых тенденций в правовой культуре общества. Особое значение высокий уровень правовой культуры имеет для лиц, выполняющих государственные и правоохранительные функции, включая курсантов высших военно-образовательных учреждений. Курсанты высших военных образовательных учреждений в Узбекистане и Казахстане (далее-курсанты) представляют собой интеллектуальную и профессионально ориентированную часть молодежи, объединенную стремлением к освоению военного дела и правовых основ своей будущей деятельности. Эффективное формирование их правовой культуры требует учета историко-педагогических и методологических аспектов, обеспечивающих интеграцию правовых знаний с военной профессиональной подготовкой.

Ключевые слова. право; культура; правовая культура, правовая культура курсанта; общество; традиции; обычаи; формирование; совершенствование.

Введение. Право, как важнейшая культурная ценность, рассматривается через призму основных концепций теории права: социологической, нравственной и нормативной. Взаимосвязь права и культуры формирует систему норм и ценностей, отражающих как регулятивные, так и этические аспекты, учитывая культурные традиции и обычаи народа. Право не только является неотъемлемой частью культуры, но и выступает в качестве ее динамического элемента: изменения в правовых нормах неизбежно находят отражение в культурных процессах, в то время как культурные факторы влияют на эволюцию правовой системы. Право и культура определяют модели социального поведения как на уровне индивидов, так и в рамках социальных групп и общества в целом, функционирующего в определенной культурной среде. Эти институты регулируют широкий спектр общественных отношений — от межличностных и межгрупповых взаимодействий до отношений между личностью, обществом и государством. Согласно исследованию А.М. Маторина, ключевыми элементами правовой культуры являются правовые убеждения и установки, формирующие восприятие правовой системы как совокупности ценностей, отражающих прогрессивное развитие общества. Высокий уровень правовой культуры граждан способствует эффективному функционированию правовой, политической и экономической систем общества [1; с.156].

В историческом аспекте правовая культура издавна рассматривалась как неотъемлемая составляющая общественной жизни, способствующая регулированию правовых отношений и развитию общей культуры. При этом правовые нормы формировались на

основе национальных и культурных традиций, а также обычаев, обеспечивая устойчивость и преемственность правовой системы.

Основная часть. Любое общество, государство, группа людей имеют особую, неповторимую правовую культуру, которая не столько является отражением правовой деятельности в ее социально-историческом аспекте, сколько оказывает на неё непосредственное влияние, меняет ее, корректирует и преобразует, стимулируя процесс развития общей культуры.

Издревле, традиционная культура и свод правил в обществе охватывали все сферы жизнедеятельности людей, оказывали существенное влияние на становление правовой системы, что способствовало формированию у населения определенной правовой культуры.

В узбекском обществе существовала разнообразная историческая традиция правовой культуры. Она включала в себя элементы традиционного права, основанного на обычаях и нормах, а также влияния религиозного права, который включал свод норм права, морали и предписаний. Эпоха туранской цивилизации, Великий Щёлоковый путь сыграли значительную роль в формировании правовой системы узбекского общества на раннем этапе развития. Как результат, сложился достаточно высокий для того времени уровень правовой культуры узбекского народа, сформировались развитый механизм и гарантии защиты прав и законных интересов субъектов правоотношений. Подобно другим народам Центральной Азии, узбеки также обращались к старейшинам и медиаторам для разрешения конфликтов и споров в рамках семьи и общества. Традиционные ценности, включая уважение к старшим, семейные узы и коллективизм, также играли важную роль в формировании правовой культуры узбекского общества [2; с.132]. Главным правовым актом, которым руководствовались в процессе регулирования общественных отношений, стала священная книга зороастризма – «Авеста» [3; с.241].

Амир Темур, один из величайших исторических лидеров Узбекистана и Центральной Азии, был известен не только своими военными подвигами, но и строгими законами, которые он устанавливал в своем государстве, где руководствовался четкими юридическими принципами и моралью. Темур принял ряд правовых актов и установил кодекс законов, известных как «Темур Тоины», в котором подчеркивалась важность справедливости, порядочности и ответственности [4]. Девиз «Сила в справедливости» является актуальной и в современных условиях построения правового государства.

Правовая культура в казахском обществе была частью более широкого контекста общей культуры народа и не только отражала социально-исторический порядок, но и влияла на его развитие, корректировала и преобразовывала нормы и традиции. Это подчеркивает взаимосвязь между правовой системой и общими культурными ценностями [5]. К примеру, правовая культура казахов была основана на обычаях и традициях, таких как адаты, шариатских законах, а также на принципах традиционного правосудия через институт биев. Этот институт выполнял роль медиации и правосудия, основанного на справедливости и уважении, а также на взаимопомощи. В начале XVII века по указу Тауке хана бии трех жузов составили свод законов «Жеті жаргы» для степного народа, такой, чтобы чтил традиции, но при этом был справедливым [6]. Как отметил С.З. Зиманов: «Казахское право «Жаргы» явившееся миру в развитом виде в XVII-XVIII веках, до сих пор, спустя столетие, занимает умы и сохранился в памяти народа как непреходящая живая ценность культуры» [7].

Рассматривая правовую культуру в военном контексте, следует отметить, что батыры играли ключевую роль в развитии правовой культуры народов Азии того времени, выступая опорой государства. Они обладали собственной системой ценностей, включавшей военное искусство, моральные и правовые нормы, а также уникальную идеологию. Батыры были не только военными лидерами, но и признанными авторитетами, содействовавшими разрешению конфликтов и поддержанию порядка на основе традиционных обычаев и правовых норм. Их мудрость и справедливость способствовали социальной стабильности, обеспечивая соблюдение устоявшихся норм права. Важное место в системе боевой подготовки занимал воин-наставник, выполнявший не только функции обучения военному делу, но и воспитания особого духовного состояния воина [8]. Батыры, обладая моральным авторитетом, оказывали значительное

ISSN 3030-3230

влияние на правовую систему и культурные практики своего времени. Они были не только защитниками своих народов, но и символами чести, справедливости и мудрости. Их деятельность объединяла элементы героизма и дипломатии, так как они выступали не только как воины, но и как миротворцы. Эти качества способствовали формированию общественных ориентиров и становлению правовых норм, что в целом укрепляло правовую культуру общества. Институт батыров сыграл ключевую роль в поддержании баланса между традицией, правом и моралью, обеспечивая стабильность общественных институтов.

В советский период правовая культура стала важным элементом формирования гражданского сознания и интегрировалась в более широкую систему воспитания, направленную на консолидацию общества в рамках единой политико-правовой модели. Исследователи отмечали, что «воспитание человека зрелого социалистического общества» напрямую связано с формированием его правовой культуры [9; с.54].

• Не согласны с данным утверждением Ю.В. Зворыкиной, т.к., например в Узбекистане, в период действия Закона «О концессиях» действительно, концессия применялась только в отношении добычи природных ископаемых, и то в отношении твердых ископаемых. Однако, с принятием Закона «О государственно-частном партнерстве» в новой редакции и переходом концессий в сферу регулирования данного закона, концессии не ограничены только лишь добычей природных ресурсов, и в большинстве стран мира, концессия рассматривается как одна из форм государственно-частного партнерства.

• Также не согласны с данным утверждением Ю.В. Зворыкина, т.к. концессия – это объект национально-правового регулирования, а не международно-правового. Государства путем принятия национальных законов (о концессиях, о ГЧП и т.д.) регулирует данную форму взаимодействия сугубо национально-правовыми способами и механизмами.

ISSN 3030-3230

3. Зворыкина, Ю.В. Методологические основы и механизмы управления концессиями в России: диссертация доктора экономических наук: 08.00.05. / Зворыкина, Юлия Викторовна. – Москва, 2003. – С. 13. – Текст: непосредственный

4. Ст. 3 Закона Республики Узбекистан «О государственно-частном партнерстве» от 10.05.2019 г., № ЗРУ-537 // Национальная база данных законодательства, 11.05.2019 г., № 03/19/537/3113; 23.01.2021 г., № 03/21/669/0060; 07.06.2022 г., № 03/22/775/0477.

5. См.: Вознесенская, Н.Н. Соглашения о разделе продукции в сфере нефтедобычи. – М.: Информация и право, 1997; Кирин Л.В., Правовой режим иностранных инвестиций (законодательное регулирование и практика отношений государства и инвесторов в Российской Федерации). – М.: АО «Центр деловой информации» еженедельника «Экономика и жизнь», 1996; Махлина, М. Законодательное регулирование вопросов собственности на природные ресурсы и прав инвестора в российском законодательстве // Нефть, газ и право. – М., 1995. – № 2-3. – С. 15-18; Салиева, Р.Н. Правовое обеспечение развития предпринимательства в нефтегазовом секторе экономики. – Новосибирск: Наука, 2007; Сосна, С. Комментарий к Федеральному закону "О соглашениях о разделе продукции". – М.: Юристъ, 1997; Сосна, С.А. Концессионное соглашение: теория и практика. – М., 2002, Теплов, О.М. Развитие законодательства о недрах в рамках горного законодательства Российской Федерации // Дело и право. – М., 1995. – № 8. – С. 27-31; Шарифуллина, А.Ф. Соглашение о разделе продукции: Понятие, заключение, реализация: Автореф. дис. … канд. юрид. наук. – М.: Московская государственная юридическая академия, 2000. – 27 с.; Щербаков, В. Действующее законодательство о недропользовании и привлечение иностранных инвестиций в нефтегазовый комплекс России // Минеральные ресурсы России. – М., 1995. – № 3. – С. 23-28.

6. См.: Андреева, Е.С. Зарубежный опыт формирования механизмов государственно-частного партнерства и возможности его использования в России // Сборник научных трудов России «Проблемы экономики, финансов и управления производством». – № 28. – 2010. – С. 153-158; Линёв, И.В. Концессия как форма государственно-частного партнерства // Вестник астраханского государственного технического университета. Серия: экономика. – Астрахань, 2011. – № 2. – С. 49-54.

7. См.: Хамроев, С.С. Гражданско-правовые проблемы концессионной деятельности и регламентации концессионного договора в Республике Узбекистан: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Ташкент, 1999. – 23 с. – Текст: непосредственный.

8. Концéссия. Заимств. в конце XVIII в. из нем. или франц. яз., где Konzession, concession < лат. concessio «уступка, согласие», суф. производного от concedere «уступать, соглашаться» < «уходить», преф. образования от cedere «идти, ступать» // Этимологический онлайн-словарь русского языка Шанского Н.М. // URL: https://lexicography.online/etymology/shansky/к/концессия (дата обращения: 06.02.2023). – Режим доступа: по подписке – Текст: электронный.

9. Нагаев, С.В. Соотношение понятий «франчайзинг» и «коммерческая концессия» / Нагаев, С.В. – Текст: непосредственный // Бизнес в законе. – 2011. – №5. – С. 128.

10. Нагаев, С.В. Соотношение понятий «франчайзинг» и «коммерческая концессия» / Нагаев, С.В. – Текст: непосредственный // Бизнес в законе. – 2011. – №5. – С. 128.

11. Директива ЕС 93/37/ЕЕС.

12. Bohn II., Dcacon R. T. Ownership Risk, Investment, and the Use of Natural Resources // American Economic Review. - 2000. - Vol. 90. - № 3.

13. Зворыкина Ю.В. Методологические основы и механизмы управления концессиями в России: Автореф. дис. … доктора экономических наук: 08.00.05. – Москва, 2003. – С. 14.

14. A. Fayard, F. Bousquet Road infrastructure concession practice in Europe // Policy research working paper. The World Bank. World Bank Institute. Governance, Regulation, and Finance Division. September. 2001.

15. M. Kerf, R. Gray, T. Irwin, C. Levesque, R. Taylor, M. Klein Concessions for infrastructure: A guide to their design and award // The International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank. March. 1998.

16. Вихряп А.П. Концессия (исторический экскурс) // Вестник Минимущества России. – 2003. – № 1.

17. Зворыкина Ю.В. Методологические основы и механизмы управления концессиями в России: Автореф. дис. … доктора экономических наук: 08.00.05. – Москва, 2003. – С. 18.

18. Дойников И.В. Предпринимательское право. – М., 1998. – С. 175.

19. Международное частное право. Учебное пособие под ред. М.А. Сарсембаева. 2-е изд., перераб. и доп. – Алматы, 1998. – С. 68.

20. Доронина Н.Г. К проекту закона о концессионных договорах. Сборник. Договор: правовые и экономические аспекты. – М., 1999. – С. 77-80.

21. Богуславский М.М. Иностранные инвестиции: правовое регулирование. 5ое перераб. и дополн. изд. – М., – 2016. – С. 148.

22. Зворыкина, Ю.В. Методологические основы и механизмы управления концессиями в России: диссертация доктора экономических наук: 08.00.05. / Зворыкина, Ю.В. – М., 2003. – С. 14. – Текст: непосредственный.

23. См., напр.: Bohn II., Dcacon R. T. Ownership Risk, Investment, and the Use of Natural Resources / Bohn II., Dcacon R.T. – Текст: непосредственный // American Economic Review. – 2000. – Vol. 90. № 3; A. Fayard, F. Bousquet. Road infrastructure concession practice in Europe / A. Fayard, F. Bousquet. – Текст: непосредственный // Policy research working paper. The World Bank. World Bank Institute. Governance, Regulation, and Finance Division. – September. – 2001; M. Kerf, R. Gray, T. Irwin, C. Levesque, R. Taylor, M. Klein. Concessions for infrastructure: A guide to their design and award / M. Kerf, R. Gray, T. Irwin, C. Levesque, R. Taylor, M. Klein. – Текст: непосредственный // The International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank. – March. – 1998.

24. Вихряп, А.П. Концессия (исторический экскурс) / Вихряп, А.П. – Текст: непосредственный // Вестник Минимущества России, – 2003. – №1.

25. Ст. 5 Закона Республики Узбекистан «О концессиях» от 30 августа 1995 г. // Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан. – 1995. – № 9. – С. 185 // Настоящий Закон утратил силу в соответствии со ст. 3 Закона Республики Узбекистан «О внесении изменений и дополнений, а также признании утратившими силу некоторых законодательных актов Республики Узбекистан в связи с совершенствованием законодательства о государственно-частном партнерстве» от 22 января 2021 года № ЗРУ-669 // Национальная база данных законодательства, 23.01.2021 г., № 03/21/669/0060.

26. Зворыкина, Ю.В. Методологические основы и механизмы управления концессиями в России: диссертация доктора экономических наук: 08.00.05. / Зворыкина, Юлия Викторовна. – Москва, 2003. – с. 18. – Текст: непосредственный

27. Частный партнер – индивидуальный предприниматель, юридическое лицо или объединение юридических лиц, зарегистрированное в соответствии с законодательством Республики Узбекистан или иностранного государства, заключившие с государственным партнером соглашение о государственно-частном партнерстве // Статья 3 Закона Республики Узбекистан «О государственно-частном партнерстве» от 10.05.2019 г., № ЗРУ-537 // Национальная база данных законодательства, 11.05.2019 г., № 03/19/537/3113; 23.01.2021 г., № 03/21/669/0060; 07.06.2022 г., № 03/22/775/0477.

28. Статья 3 Закона Республики Узбекистан «О государственно-частном партнерстве» от 10.05.2019 г., № ЗРУ-537 // Национальная база данных законодательства, 11.05.2019 г., № 03/19/537/3113; 23.01.2021 г., № 03/21/669/0060; 07.06.2022 г., № 03/22/775/0477.

29. J. Guasch, J. Laffont, S. Straub. Infrastructure Concessions in Latin America: Government-Led Renegotiations / J. Guasch, J. Laffont, S. Straub. – Текст: непосредственный // World Bank Policy Research Working Paper 3749, October, 2005.

30. Закон Республики Узбекистан «О государственно-частном партнерстве» от 10.05.2019 г., № ЗРУ-537 // Национальная база данных законодательства, 11.05.2019 г., № 03/19/537/3113; 23.01.2021 г., № 03/21/669/0060; 07.06.2022 г., № 03/22/775/0477.

31. Самигулин, Р.Р. Концессионные механизмы развития регионов: диссертация кандидата экономических наук: 08.00.05. / Самигулин, Роман Ряшидович. – Москва, 2011. – с. 15. – Текст: непосредственный.

ISSN 3030-3230

JINOYAT BILAN BOG‘LIQ MAVZULARNI YORITISHDA JURNALIST ETIKASINING DOLZARB MASALALARI

Ismoilova Kamola Umarkulovna ,
O‘zMTRK “O‘zbekiston 24”
telekanali katta muharriri, O‘zJOKU mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jurnalist etikasining jinoyat bilan bog‘liq mavzularni yoritishga oid jihatlari, mavjud muammolar tahlil qilinadi hamda ularni bartaraf etish bilan bog‘liq yechimlar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: etika, jurnalist, jinoyat bilan bog‘liq mavzular, jinoyatlarni OAV da yoritilishi, sensatsiya, intriga, axborot etikasi asri, altruizm, Konstitutsiya, javobgarlik, jinoyat va jazo.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda axborot odamlarni boshqarayotganligi oddiy haqiqatga aylanib ulgurdi. Endilikda deyarli barcha uyqudan uyg‘oniboq yangi axborotga intilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va internet saytlari butun dunyo daraklari xabarchisi maqomini oldi. Inson tongni qanday xabar bilan boshlasa butun kuni shu kayfiyatda davom etishi tabiiy bo‘lgan omilni inobatga oladigan bo‘lsak, bugungi qabul qilinayotgan yangiliklar bizga juda katta ta’sir o‘tkazayotganligiga amin bo‘lamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Agar biz O‘zbekiston axborot makonida milliy kontent yaratishni o‘z qo‘limizga olmas ekanmiz, dunyodagi voqealarga milliy manfaatlarimiz nuqtai nazaridan baho bermas ekanmiz, bu ishlar xorijdan turib amalga oshirilishiga imkon yaratib bergan bo‘lamiz. Chunki odamlardagi yangilik, tahliliy ma’lumotlar, real voqealarga bo‘lgan ehtiyojni biz to‘ldirmas ekanmiz, buni boshqalar qiladi. Bunga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi” [1].

E’tibor bersak so‘nggi paytlarda jinoyatlar bilan bog‘liq xabarlarga ko‘p duch kelyapmiz. Dunyoning turli nuqtalarida sodir bo‘lib turgan notinchliklar, zo‘ravonliklar, qotillik, o‘g‘rilik, korrupsiya, pedofiliya, talonchilik tafsilotlari aks etgan xabarlar odamlarni birinchi bo‘lib e’tiborini tortadigan mavzularga aylanib qolgan. Insonning bevosita psixikasiga ta’sir qiladigan qonli sahnalar, be’mani kadrlar, sensatsion fotolar oldi-orqasini o‘ylamasdan auditoriyaga yetkazilmoqda.

Savol tug‘iladi, zamondan norozi odamlar ko‘payib ketayotganligining asl sababi axborotlar jilovining bo‘shalib ketganligidan emasmikan?! Ommaviy axborot vositalari ichida gegemonlikni qo‘lga olgan internet bugun qay ahvolda? Vaziyat hayvonot bog‘idagi ochiq eshiklar kuniga o‘xshab qolmayaptimi? Televideniye o‘zining ta’sir kuchidan to‘g‘ri foydalana olayabdimi? Matbuotdachi jinoyatlar bilan bog‘liq holatlar qay yo‘sinda yoritilayabdi?

“XXI asr axborot asri deya e’tirof etilgan bo‘lsa, XXII asr axborot etikasi asri bo‘lishi kerak” [2] degan nazariyadan kelib chiqqan holda voqelikni yetkazishda katta bir mezon etika masalasiga jiddiy ahamiyat qaratish davr talabiga aylanib ulgurganligini e’tirof etish o‘rinli.

Xo‘sh jinoyatlarga oid axborotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritish yo‘l-yo‘riqlari, qonun-qoidalari bormi? Istagan odam jinoyatlar bilan bog‘liq xabarni OAVda e’lon qilishga haqlimi? O‘zi jinoyatlarni yoritish kerakmi yoki yo‘q, shular xususida mulohaza yuritamiz.

Birinchidan, inson kamoloti ko‘p qirrali va har bir shaxsning jamiyatdagi o‘rni ma’naviy qiyofasi bilan belgilanadi. Jurnalistlar jamiyatning ilg‘or va doimiy ravishda bir necha qadam oldinda yurish talab etiladigan qatlami bo‘lganligi uchun ulardan avvalo yuksak ma’naviyat sohibi bo‘lish talab etiladi. Aynan ma’naviyat etika tushunchasining asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Jamiyatda “bugun ma’naviyat boshqa sohalardan o‘n qadam oldinda yurishi, ma’naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak” [3]. Demak, nafaqat professional jurnalist, balki oddiy inson ham etika talablariga rioya qilishi kerakligi nuqtai nazaridan ayon bo‘ladiki, har qanday ma’lumotni ham axborot sifatida e’lon qilish yaramaydi.

Ma’naviyat va uning o‘zagi bo‘lgan milliy qadriyatlarimizni, axloqni tahdid va tajovuzlardan himoya qilish, qonunchilikda ularning oldini olish maqsadida muayyan cheklov va taqiqlar belgilangan. Xususan, Jinoyat kodeksiga muvofiq tazyiqni, zo‘ravonlikni yoki shafqatsizlikni (1301-m.), urushni (150-m.), milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni (156-m.), kuchli ta’sir qiluvchi,

zaharli, zaharlovchi, portlovchi moddalar, radioaktiv materiallar, portlatish qurilmalari, qurol-yarog‘, o‘qotar qurolni, o‘q-dorilarni yoki o‘qotar qurolning asosiy qismlarini, shuningdek giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni yoki diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni (246-m., 251[1]-m, 274-m.) targ‘ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan [4].

Ikkinchidan, jinoyatlar bilan bog‘liq vaziyatlar o‘ta nozik masala bo‘lganligi uchun inson sha’ni, qadr-qimmati kamsitilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Har bir shaxs singari jurnalistning ham huquqlari, majburiyatlari va mas’uliyati bor. Jamiyatda huquq va majburiyatlarning uyg‘unlikda ta’minlanishi “O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi” [5] degan konstitutsiyaviy prinsipga asoslanadi.

Ommaviy axborot vositalari faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solishda ham ana shu tamoyil asos bo‘lib xizmat qiladi. Jinoyatlar bilan bog‘liq vaziyatlarni yoritishda etika talablarini buzganlik uchun dunyo tajribasiga tayangan holda O‘zbekistonda ham qonunlar asosida javobgarlik masalasini hal etish dolzarb bo‘lib qolmoqda.

2019-yil 17-iyul kuni O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasining IV konferensiyasida O‘zbekiston jurnalistlarining kasb etikasi kodeksi qabul qilingan. Lekin unda qayd etilishicha, bu kodeks majburiy xarakterga ega emas, faqat tavsiyaviy maqomda bo‘ladi. Fikrimizcha ijobiy natijaga erishish uchun faqat tavsiyaning o‘zi kamlik qiladi. Shuning uchun milliy qonunchilikka axborot etikasi talablariga rioya etmaslik va uni g‘araz maqsadlarda qasddan buzish holatlarining oldini olishga xizmat qiladigan normalar kiritish zarurati mavjud.

Uchinchidan, jinoyatlarning turlari, jinoiy qilmishlarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda ularni yoritishda ma’lumotlarni izlash, asoslash va tekshirish me’yorlariga rioya etgan holda keng jamoatchilikka voqelikni to‘g‘ri, aniq va xolis yetkazish jurnalistdan, mazkur jinoyatlar bo‘yicha protsessual harakatlarni olib borgan vakolatli organlarning mas’ul xodimlari bilan yaqindan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishning oqilona yo‘llarini aniqlash hamda amalga oshirish talab etiladi. Ta’kidlash joizki, “ommaviy axborot vositalari mansabdor shaxslarning o‘z ishini qonunga muvofiq olib borishiga yordam beradi. Shu ma’noda, jamoatchilik nazorati ham, ommaviy axborot vositalari ham yagona maqsad – fuqarolarning farovonlik darajasini muttasil yuksaltirish, qonun ustuvorligini ta’minlash, davlat va boshqaruv organlarining huquqiy, tashkiliy-huquqiy va ijtimoiy-ma’naviy sharoitlarni ta’minlashga xizmat qiladi.” [6]

To‘rtinchidan, jinoyatlar bilan bog‘liq mavzularni yoritishda psixologik ta’sir ko‘lami va etika masalasining chambarchas bog‘liqligiga e’tibor qaratish lozimligi taqozo etiladi. Dunyo amaliyotida odamlarni tahlikaga soladigan har qanday axborotlarni yoritish qoralanadi. Bu borada e’tiborsizlik qilgan subyektlarga nisbatan amaldagi qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan.

Birgina misol 1999-yil 28-aprelda qabul qilingan Rossiya teleradioeshittirishlar Xartiyasiga ko‘ra “axborotni audiovizual uzatish ekranda ko‘rsatilayotgan materiallarga qattiq talablar qo‘yadi. Televideniyening auditoriya ongiga psixologik ta’sirini inobatga olish lozim.... Jurnalistning kadrlarni terishda axborotni noto‘g‘ri ravishda talqin qilib berishlari kasbiy axloq me’yorlarining buzilishiga olib keladi” [7]. Shunday ekan jinoyatlarni yoritayotgan jurnalist auditoriya ruhiyatini alohida inobatga olishga majbur. Biror jinoyatni taqdim etishdan avval uning qanday qabul qilinish ehtimolliklari ta’bir joiz bo‘lsa hazm qilinishi darajasi to‘g‘ri bashorat qilinishi va turli psixologik xatarlarga tayyor turishi talab etiladi. Bunda eshittirish yoki ko‘rsatuvning qaysi vaqtda efirga uzatilishidan tortib, jinoyat tafsilotlari xronometrajigacha alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, jurnalist etikasining jinoyat bilan bog‘liq mavzularni yoritishdagi ahamiyati aholining huquqiy madaniyati shakllanganlik ko‘lami bilan chambarchas bog‘liq. Ochiqlik va oshkoralik mezoni ostida axborotni yetkazavergan bilan masala hal bo‘lib qolmaydi. Avvalo odamlarning voqelikka munosabati, ularni hech bir ma’naviy-ruhiy salbiy oqibatlarsiz qabul qilishga (intriga [8]) tayyor yoki tayyor emasligi, bir so‘z bilan aytganda xalqning kayfiyati doimo inobatga olinishi kerak bo‘lgan jihatlar sirasiga kiradi.

Ma’lumki axborot va so‘z erkinligi O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi, “Teleradioeshittirishlar to‘g‘risida”gi, “Jurnalistik faoliyatni himoya

ISSN 3030-3230

qilish to‘g‘risida”gi va qator sohaga oid qonunlar bilan muvofiqlashtiriladi. OAVining faoliyatini tashkil etuvchi shaxslar, shu jumladan jurnalistlar jamoatchilik fikrini o‘rganishi, zarur axborotlarni olishi mumkin, biroq voqelikni obyektiv aks ettirishi uchun qonun hujjatlarini yaxshi bilishi va jamoatchilikka hodisani aniq yetkaza olish malakasi, axloqiy me’yorlarini bilishi muhimdir.

Oldinlari davlat idoralari matbuot uchun ancha yopiq edi. Masalan, Ichki ishlar vazirligi har oyda qancha avtohalokat bo‘lganligi yoki jinoyat sodir etilganligi to‘g‘risida statistik ma’lumotlarini keng jamoatchilikka taqdim qilinmas edi. Endilikda bu ma’lumotlarni bemalol olish mumkin. Hozirgi sharoitda jurnalistlar qayerda shov-shuvga olib keladigan voqea yuz bergan bo‘lsa, shunday hodisalarni ko‘proq keng jamoatchilikka uzatmoqda. Bu holat aholining, ayniqsa bolalar va yoshlarning ma’naviy-ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatish bilan bir vaqtda jamiyatda negativ axborotga bo‘lgan “ochlik” ni yanada kuchaytirib yubormoqda.

Inson psixologiyasida qo‘rquvga nisbatan qiziqish mavjud. Chunki jamiyatimizda yoshlikdan qo‘rqitib katta qilish amaliyoti ustun. Shuning uchun insonlar har doim qo‘rqinchli axborotga katta qiziqish bildiradi va izlaydi. Jurnalistlar esa odamlar qiziqishar ekan deb sensatsiyaga mukkasidan ketib jamiyat a’zolarining e’tibor markazini salbiy axborot bilan to‘ldiradigan bo‘lsa, odamlar orasida vahima va qo‘rquv kayfiyati, ichki xotirjamlikning buzilishi ommalashadi. Ertasidan xavotir bilan yashash insonlarni o‘z maqsadi yo‘lida dadil odimlashdan chalg‘itadi. Shuning uchun ham ommaviy axborot vositalari vakillari ayniqsa jinoyatlar bilan bog‘liq mavzularni yoritishda o‘ta ehtiyotkor bo‘lishi va bu borada jurnalist kasb etikasiga rioya qilishi talab etiladi.

Axloq normalariga amal qilish asosan ixtiyoriy xususiyatga ega. Bu ko‘pincha altruizm va egoizm tushunchalari bilan ham muvofiq keladi. “Altruizm (alter lotin tilida boshqa, o‘zga ma’nosini beradi) – o‘z manfaatlaridan ko‘ra boshqalarning tashvishi bilan yashash, ularga g‘amxo‘rlik qilish bo‘lsa, egoizm (ego- lotinchada men) – o‘z manfaatlarini boshqalar va jamiyat manfaatlaridan ustun qo‘yishdir” [9].

Jinoyatlar tafsilotini qay tarzda yoritish jarayoni ham qaltis masala. Qosh qo‘yaman deb ko‘z chiqarib yubormaslik, ya’ni bo‘lgan voqeani bayon qilish chog‘ida odamlarda aks ta’sir uyg‘otmaslik, jinoyat qilish yo‘l-yo‘riqlarini o‘rgatib qo‘yishdek ehtimolliklardan qochish va albatta jamiyatda jinoyatlarni oddiy holdek qabul qilish ta’bir joiz bo‘lsa diydasi qotib ketishdek kayfiyatni uyg‘otib qo‘ymaslik uchun ham aynan jurnalistlar mas’ul.

Biz tahlil qilayotgan muammo etika ilmiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq ekanligidan kelib chiqib, ommaviy axborot vositalarida jurnalist etikasining namoyon bo‘lishi bevosita xalqning ma’naviy ko‘zgusi sifatida gavdalanadi. Jurnalistika ham boshqa kasbiy sohalar kabi o‘ziga xos axloqiy me’yorlarga ega. Ular maslahat xarakteriga ega va yig‘ish, qayta ishlash hamda tarqatish jarayonlariga oid asosiy qoidalarni belgilab beradi. Hujjatlarda qayd etilgan ushbu turdagi qoidalar, milliy, mahalliy va albatta xalqaro kasbiy axloq kodeksiga asoslanadi. Jurnalistik faoliyat olib borishda kasb etikasiga rioya qilishning doimiy standartlari mavjud emas. Turli vaziyatlarda fors major holatlarda to‘rtinchi hokimiyat organlari vakillari improvizatsion tarzda pozitsiyasini namoyon qilishiga to‘g‘ri keladi.

Demak jinoyatlar bilan bog‘liq vaziyatlarni OAVda yoritishda etika talablariga rioya etilishi turli kutilmagan ko‘ngilsiz holatlarni oldini olish va professional yondashuvning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Аннотация. В данной статье анализируются аспекты журналистской этики, связанные с освещением тем, связанных с преступностью, существующих проблем и предлагаются пути их устранения.

Ключевые слова: этика, журналист, темы, связанные с преступностью, освещение преступлений в СМИ, сенсация, интрига, век информационной этики, альтруизм, Конституция, ответственность, преступление и наказание.

Abstract. This article analyzes aspects of journalistic ethics related to the coverage of topics related to crime, existing problems and suggests ways to eliminate them.

Key words: ethics, journalist, topics related to crime, coverage of crimes in the media, sensation, intrigue, century of information ethics, altruism, Constitution, responsibility, crime and punishment.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.gazeta.uz/uz/2024/01/13/media/
2. Дўстмуҳаммедов Х. Н. Ютюбь «Ахборот асри ва шахс: тафаккур пиллапояси» 02.12.2022.
3. Мирзиёев Ш. Маънавият бошқа соҳалардан олдинда юриши, янги кучга, янги ҳаракатга айланиши керак https://president.uz/uz/lists/view/6941
4. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. https://www.lex.uz/acts/111453
5. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. https://lex.uz/docs/6445145
6. Ё.Маматова "Роль средств массовой информации в осуществлении общественного контроля за деятельностью судебной власти в Узбекистане" USAID.
7. Егоров В.В. Терминологический словарь телевидения: основные понятия и комментарии. -М.,2007. С.103
8. Изоҳ: Ғаразли мақсад йўлида қилинган яширин ҳаракат,фитна, ҳийла-найранг. https://izoh.uz/word/intriga
9. Қосимова Н. "Тележурналистнинг ахлоқий тамойиллари." Nargis.uz

ISSN 3030-3230

GAROV OBYEKTI SIFATIDA TOVAR BELGILARINING FUQAROLIK-HUQUQIY MAQOMI MASALALARI

Adashov Xojiboy Xusan o‘g‘li,
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Garov huquqi qadim zamonlardan insonlarning o‘z olgan majburiyatlarini bajarilishini kafolati bo‘lib kelgan. Garov obyekti bo‘lib turli shakldagi moddiy ashyolar hisoblangan. Biroq, so‘ngi yillardan intellektual mulk obyektlari, xususan tovar belgilariga nisbatan xam garov huquqi qo‘llanilmoqda. Buni ayniqsa rivojlangan davlatlar garov munosabatlarida ko‘rish mumkin. Mazkur maqolada tovar belgilarining garov narsasi sifatida muomalada bo‘lishini huquqiy masalalari ko‘rib chiqiladi va qonunchilikni takomillashtirishga doir takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar: garov, tovar belgisi, AQSh, Germaniya, mutlaq huquq, intellektual mulk, Qadimgi Rim, Qadimgi Bobil, garov huquqi.

Qadim zamonlardan garov majburiyat bajarilishini ta’minlash vositasi bo‘lib kelgan. Uning fuqarolik-huquqiy sohasi sifatida shakllanishi bir necha yuz yillikka borib taqaladi. Garov borasidagi dastlabki qoidalar Xamurappi qonunlarida uchraydi (mil.avv VI asr). Qadimgi Bobilda hattoki qimmatbaho buyumlar garovi bilan shug‘ullanuvchi maxsus banklar faoliyat olib borgan [1]. Manu qonunlarida (mil.avv II asr) ham garovga oid qoidalar mavjud bo‘lgan. Qadimgi hind qonunlarida garov ko‘char va ko‘chmas mulkka ajratilib, garov huquqi predmetni saqlashga yoki kreditorning undan foydalanishiga mo‘ljallangan. Qadimgi Rimda qarz institutining ommalashishi garov shaklining ham yanada rivojlanishiga turtki bo‘lgan [2].

Dastlab moddiy ashyolar garov huquqida majburiyat bajarilishini ta’minlash vositasi hisoblangan. Iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi garovning nomoddiy huquqiy usullarini ham paydo bo‘lishini tezlashtirgan. Hozirda AQSh, Janubiy Koreya, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi, Xitoy kabi davlatlarda mutlaq huquqlar garovi instituti keng qo‘llanilmoqda. Chunki ulardagi iqtisodiyotning ishlab chiqarish sohasidagi asosiy ulushi intellektual mulk hissasiga to‘g‘ri keladi. Masalan, Yevropada intellektual mulkning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 45 foizni tashkil etadi [3]. Rossiya Federatsiyasiga ham mutlaq huquqlar garovi fuqarolik-huquqiy munosabat sifatida shakllangan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu davlatda 2015-yilda 362 ta tovar belgisi uchun 58 ta, 2016-yilda 689 ta tovar belgisi uchun 72 ta, 2017-yilda 750 ta tovar belgisi uchun 98 ta, 2018-yilda 829 ta tovar belgisi uchun 98 ta, 2019-yilda 756 ta tovar belgisi uchun 104 ta garov shartnomalari tuzilgan [4].

AQShda intellektual mulk garovi bilan shug‘ullanuvchi maxsus bank-moliya sanoati faoliyat olib borib, ular venchur kompaniyalar va startaplarning nomoddiy aktivlarini garovga olish evaziga kreditlar ajratadi. Ushbu davlatda intellektual mulk garovida kompyuter dasturlari, ma’lumotlar bazalari yetakchi o‘rinni egallaydi [5]. Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Kanada, AQSH kabi davlatlarda mutlaq huquq garovi shartnomasini tartibga solish maxsus qonunchilikka ko‘ra amalga oshiriladi [6].

Mutlaq huquqlar garovi shartnomasining muhim shartlari bo‘lib, garov predmeti, uning bahosi, olingan majburiyat va uning hajmi, majburiyatni ta’minlash muddati [7] hisoblanadi. Garov huquqi shartnoma asosida vujudga keladi [8]. Mutlaq huquqlar garovi shartnomasining haqiqiy sanalishi uning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi bilan belgilanadi. Garov shartnomasi ikki tomonlama, haq baravariga va konsepsual hisoblanadi. Tovar belgisiga nisbatan huquqlar garovi shartnomasining taraflari garovga oluvchi (kreditor) va garovga qo‘yuvchi (qarzdor) dir. Shartnomaning o‘ziga xos jihati tovar belgisi faqat huquq egasi yoki u vakolat bergan shaxs tomonidan garovga qo‘yilishidir [9].

O‘zbekistonda mutlaq huquqlar garovi masalalari ilmiy jihatdan O.Okyulov [10], N. Imomov [11], B. Axmadjonov [12], S. Safoyeva [13]lar tomonidan umumiy asoslarga ko‘ra o‘rganilgan. O. Okyulov intellektual mulk obyektlariga nisbatan garov shartnomasi qoidalarini qo‘llash masalasini tahlil qilgan holda, mutlaq huquqlar egasi intellektual mulk obyektiga nisbatan o‘z huquqlarini Fuqarolik kodeksi va amaldagi qonunchilikka zid bo‘lmagan holda har qanday tarzda tasarruf etishga haqli. Masalan, mutlaq huquq egasi majburiyat bajarilishini ta’minlash usuli sifatida garovga qo‘yishi mumkin

[14].

Yevropa, AQSh, Yaponiya, Xitoy, Rossiya davlatlarida Dj. Marshall, R. Kolduell, B. Kain [15], Livio Espozitsione [16], Muravi Kukrus, Viktoriya Antonova [17], Jie Chen va Zeming Yuan [18], Bruno Amablea, Jan-Bernar Shatelena, Kirsten Ralf [19], Du Qunyang, Shi Jicong, Xu Xia kabi tadqiqotchilar intellektual mulk huquqlari garovini alohida tadqiqot ishi sifatida o‘rganishgan. Shuningdek, Rossiyada O.V. Beloy, Yu.V. Borisova, Ye.V. Jarova, V.A. Zimin, V.N. Kastalskiy, Ye.I. Kashirina, R.O. Kononenko, O.G. Krushina [20] mutlaq huquqlar garovini dissertatsiya darajasida o‘rganishgan. Qayd etish lozimki, ushbu ilmiy asarlarda mutlaq huquqlarni garov shartnomasida qo‘llash borasida yakdil fikrlarning yo‘qligi huquqni qo‘llash amaliyotida keskin munozaralarga sabab bo‘lmoqda [21]. Masalan, tovar belgilari sohasidagi deyarli barcha mutaxassislar intellektual mulk huquqi garov shartnomasini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish lozimligini ta’kidlasa [22], V.E. Yevdokimova esa ushbu qoidani majburiy shart sifatida e’tirof etmaydi [23].

O‘zbekiston fuqarolik qonunchiligida mutlaq huquqlar garovini ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi va shartlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri belgilanmagan. Shuningdek, amaldagi qonunchilikda intellektual mulk, xususan, tovar belgisi garov narsasi bo‘lishi mumkinligi ham aniq ko‘rsatilmagan. Lekin Fuqarolik kodeksining 267-moddasi 1-qismida garovga qo‘yuvchining har qanday mulki garov narsasi bo‘lishi mumkinligi belgilangan. Demak, Fuqarolik kodeksidagi garov to‘g‘risidagi qoidalarni tovar belgisi garoviga nisbatan tatbiq etish mumkin. Shunga ko‘ra, FKning 270-moddasi, garov to‘g‘risidagi qonunning 9-moddasi va tovar belgilari qonunning 30-moddasi talablaridan kelib chiqib, tovar belgisi garovi shartnomasi Intellektual mulk agentligidan ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Ushbu tartib shuningdek Ispaniyaning 17/2001-sonli tovar belgilari qonuni (Trademark act (17/2001) ning 46,74 va 79-moddalari, Italiya Intellektual mulk kodeksining 138 va 140-moddalari, Fransiya Intellektual mulk kodeksining L 142-1 va L 143-17-moddalari, Buyuk Britaniyaning 1977 yildagi Patent huquqlari qonunining 33-moddasida ham belgilangan. Niderlandiya Fuqarolik kodeksi 3-kitobining 3:231(1), 3:234, 3:246(4), 3:248, 3:249, 3:250, 3:252, 3:255, 3:68-moddalariga muvofiq, tovar belgilari garovi shartnomasi Intellektual mulkning tegishli reyestrida ro‘yxatga olinishi bilan birga soliq organlarida ham ro‘yxatdan o‘tkaziladi [24].

Garov shartnomasi bo‘yicha garov narsasi tovar belgisi ro‘yxatga olingan tovarlarning bir qismi yoki barchasiga tegishli hisoblanadi [25]. Mutlaq huquqlar garovi bilan ta’minlangan majburiyatda qarzdorning shartnoma shartlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi sababli garov narsasi bo‘lgan mutlaq huquqning qiymati kreditorning mulkiy talabini qondirishga nisbatan mos bo‘lishi lozim [26]. Lekin ushbu qiymat obyektiv va subyektiv omillar sabab har doim ham yetarli bo‘lmasligi mumkin va bu o‘z navbatida kreditorda qarzdordan garov narsasini almashtirishga nisbatan talab qilish huquqi paydo bo‘ladi (FKning 276-moddasi).

Tovar belgilari qonuniga ko‘ra, tovar belgisiga nisbatan huquqning amal qilishi moddiy xususiyatdagi ashyolardan farqli o‘laroq, ma’lum muddat bilan chegaralanadi (21-modda). Tovar belgisi egasi esa ushbu muddatni har safar yangi muddatga uzaytirib boradi (22-modda 1-qism). Garov shartnomasi esa tovar belgisi amal qiladigan muddatga qadar tuziladi. Shartnomani tovar belgisi muddatiga qadar tuzish biron-bir tushunmovchilikni keltirib chiqarmaydi. Lekin garov narsasi bo‘lgan tovar belgisini huquq egasining navbatdagi muddatga uzaytirmasligi kreditor uchun zarar ko‘rish xavfni keltirib chiqaradi. Amaldagi qonunchilikda esa, ushbu holatda garovga oluvchi huquqlarini muhofaza qilish bo‘yicha qoida mavjud emas. S.V. Medvedovning fikricha, mutlaq huquqlarni garovi shartnomasi muddati majburiyatni bajarilishini ta’minlash muddatiga qaraganda qisqa bo‘lishi lozim. Garov shartnomasida muddat va majburiyatni bajarish muddati o‘rtasidagi chegara aniq ko‘rsatilishi shart [27]. Garov shartnomasida muddatni qat’iy belgilash qarzdorning garov bilan ta’minlangan majburiyatini kreditorga nisbatan bajarishning huquqiy asosi bo‘lib xizmat qiladi [28]. Ye.V. Jarova Rossiya Fuqarolik kodeksida garov shartnomasi muddatini uzaytirishga qaratilgan aniq qoida mavjud emasligini ta’kidlaydi. Shartnomani belgilangan muddatga uzaytirish maxsus shartnoma tuzish yo‘li bilan yoki shartnomadagi muddatni o‘zgartirish yo‘li bilan amalga oshirilishi mumkin [29]. Amaldagi qonunchilikda esa ushbu muddat qaysi vaqt bilan chegaralanishi belgilanmagan. Shu bilan birga, tovar belgilari garovi shartnomasi ayrim mulohazali jihatlarni o‘zida namoyon etadi. Unga ko‘ra, agar qarzdor tovar belgisi navbatdagi muddatga uzaytirmasa FKning 283-moddasi 1-qismiga

ISSN 3030-3230

ko‘ra, garovga qo‘yilgan huquq bekor bo‘ladi. Ya’ni, tovar belgisining garov narsasi sifatidagi maqomi yo‘qoladi. Qarzdorning garov narsasidan boshqa mulki bo‘lmasa yoki mavjud boshqa mulk(lar)ning qiymati qarzdorlikni qoplashga yetmasa kreditorning talabi qondirilmasligi xavfini tug‘diradi.

O‘zbekiston “Garov to‘g‘risida”gi qonunning 5-moddasi 3-qismiga muvofiq, garov huquqi mol-mulkning narsalarini va tarkibiy samarasini ham o‘z ichiga olishi lozim. Moddiy ashyolar garovida mulkning tarkibiy samarasi faqat ushbu ashyo bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan predmetlar hisoblanadi. Agar ko‘chmas mulk garovga qo‘yilgan bo‘lsa, uning tarkibiy samarasiga binoning qurilish rejasi, kadastr hujjatlari va boshqa qurilishi-montaj bilan bog‘liq loyihalari kiradi. Moddiy ashyoning ushbu tarkibiy samaralari kreditorga garov narsasi bilan birga berilishi mumkin. Nomoddiy huquqlar garovida har doim ham garov narsasi bilan birga uning tarkibiy samarasini berishning imkoni yo‘q. Masalan, ayrim turdagi tovar belgilari (Coca-cola, Pepsi) garovga qo‘yilganda, uning tarkibiy qismi bo‘lgan tijorat sirini ham kreditorga berish nojoiz [30]. Chunki tijorat siri mustaqil muomala vositasi bo‘lishi bilan birga alohida garov narsasi hamdir. Ikkinchidan, tijorat sirini tashkil etuvchi ma’lumotlar (uning kimyoviy, fizik, texnologik va. h.k. xossalari) tovar belgisi qiymatining asosini tashkil etadi. Uning boshqa shaxsga (hattoki u garovga oluvchi bo‘lsa ham) berilishi tijorat siri maxfiyligi tamoyilini buzadi [31]. Agar shunday ma’lumotlar garovga oluvchiga taqdim etilsa, shartnomada uning maxfiyligini saqlash kreditorning majburiyati sifatida belgilanishi lozim. Taqdim etilgan tijorat sirini oshkor bo‘lishi garovga oluvchining garovga qo‘yuvchi oldida mulkiy javobgarligini keltirib chiqaradi. Kreditor garov shartnomasi bo‘yicha tijorat sirini tovar belgisi bilan birga garov narsasi sifatida qabul qilganida unga nisbatan insofli egallovchi bo‘ladi. Qarzdor esa kreditordan tijorati sirini tashkil etuvchi ma’lumotlarni maxfiyligini ta’minlashni talab qilishga haqli. Ushbu talab garov shartnomasi bekor bo‘lganda ham saqlanib qoladi. Amaldagi qonunchilikda ushbu holatni tartibga solishga qaratilgan aniq qoidaning mavjud emasligi tijorat sirini garovga shartnomasida tovar belgisi bilan taqdim etish mumkin emas. Tovar belgisi bilan birga tijorat sirini garov shartnomasiga ko‘ra kreditorga topshirmaslik qarzdor tomonidan olingan majburiyatni bajarilishini nisbatan cheklaydi yoki imkonsiz qilib qo‘yadi.

AQSh, Yaponiya, Xitoy, Gollandiya, Buyuk Britaniya, Fransiya va boshqa Yevropa davlatlarida mutlaq huquqlar garovi odatdagi shartnomaviy munosabat sifatida qaraladi. Ushbu munosabatni tartibga solishga oid maxsus qonunchilik ham ishlab chiqilgan [32]. Bugungi kunda ayrim davlatlar (Xitoy va Germaniya)da mutlaq huquqlar garovi bo‘yicha maxsus modellar amal qiladi. Tadqiqotchi Chjou Li Xitoyda mutlaq huquqlar garovi bo‘yicha uchta model [33] ya’ni Pekin modeli (Beijing pattern) – qarz majburiyatini bevosita ta’minlash (bevosita bank va tadbirkor o‘rtasidagi munosabat); Pudon modeli (Pudong Pattern) – bilvosita garov krediti (bank, davlat va patent huquqi egasining kafolati) va Uxan modeli (Wuhan Pattern) – bilvosita va bevosita garov kreditini ta’minlash kabilar amal qilishini ta’kidlaydi.

Germaniyada mutlaq huquqlar garovi “shaxsiy garov” (Pfandrecht an Rechten) va “cheklangan huquqlar garovi” (Sicherungsabtretung) kabi ikkita modeli amal qiladi. “Shaxsiy garov” modelidan farqli o‘laroq, “cheklangan huquqlar garovi” modelida garovga qo‘yuvchi nomoddiy obyektga nisbatan huquqini garovga oluvchi nomiga o‘tkazadi. Agar qarzdor o‘z majburiyatini bajarsa, kreditor o‘ziga o‘tkazilgan mutlaq huquqni garovga oluvchi nomiga qaytaradi. Cheklangan huquqlar garovida garovga oluvchi huquq egasi maqomiga ega bo‘lib, tovar belgisiga nisbatan huquqni uchinchi shaxslarning qonunga zid xatti-harakatlaridan himoya qilishga, hattoki garovga oluvchi garovga qo‘yuvchidan uning qonunga zid hatti-harakatlarini to‘xtatishni va natijada o‘ziga yetkazilgan zarar qoplashni talab qilishga haqli [34].

O‘zbekistonda mutlaq huquqlar garovi amaliyoti mavjud emas. Chunki ushbu xususiyatdagi fuqarolik-huquqiy munosabat an’anaviy moddiy ashyolar garovi kabi ishonchga asoslanmagan. Shuningdek, mutlaq huquqlar garovini amalga oshirish borasida fuqarolarning intellektual mulkka huquqlarini amalga oshirish bo‘yicha maxsus savodxonligi ham yetishmaydi. Shu bilan birga, amaldagi fuqarolik qonunchiligidagi garov munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan qoidalar mazmuni moddiy ashyolar garoviga nisbatan moslashtirilgan. Xorijiy davlatlarda esa mutlaq huquq garovi alohida qonunchilikka ko‘ra, tartibga solingan. Hattoki, garov narsasi bo‘lmish tovar belgisi bahosining reytingi yuritiladi va ommalashtirib boriladi. Garovga oluvchi ushbu reytingga qarab tovar

belgisini garovga olish yoki olmaslik masalasini hal qiladi [35]. Ikkinchidan, garov shartnomasi bo‘yicha olingan majburiyatning bajarilishini nazorat qilish u ro‘yxatga olingan patent idorasi tomonidan amalga oshiriladi. Uchinchidan, mutlaq huquqlar garovi shartnomasi bo‘yicha garovga oluvchining huquqlarini qarzdorning insofsiz xatti-harakatlaridan sug‘urtalash tizimi yo‘lga qo‘yilgan [36].

O‘zbekiston FKning 272-moddasi 2-qismiga ko‘ra, garovga oluvchi garovga qo‘yilgan mol-mulkdan foydalanish natijasida olingan hosil, mahsulot va daromadlarga garov huquqi shartnomasida nazarda tutilgan hollarda yopiy qilinishi mumkin. Ushbu qoidani tovar belgilariga nisbatan qo‘llash bo‘yicha amaldagi qonunchilikda biron bir cheklov mavjud emas. Lekin moddiy ashyolardan farqli o‘laroq, garovga qo‘yilgan tovar belgisidan foydalanish ma’lum talablarga bo‘y sunadi. Ushbu talablar qaysidir ma’noda garovga oluvchini litsenziat maqomiga tenglashtiradi. Garovga qo‘yuvchi esa garovga oluvchiga nisbatan kreditor maqomini oladi. Garovga oluvchining tovar belgisidan foydalanishi bo‘yicha maxsus talablar bo‘lib, garovga oluvchi tomonidan ishlab chiqarayotgan tovar garovga qo‘yuvchi tovarining sifati bilan aniq mos bo‘lishi, tovar belgisi egasining ishlab chiqarish sirini oshkor etmasligi (agar shunday huquq taqdim etilgan bo‘lsa) (FKning 867-moddasi), garovga qo‘yuvchi bilan raqobatlashmasligi, boshqa shaxslar tomonidan garovga qo‘yilgan tovar belgisidan foydalanmasligi (FKning 868-moddasi) lozim.

Garovga qo‘yuvchi tovar belgisidan foydalanish huquqini litsenziya shartnomasiga ko‘ra uchinchi shaxslarga berishi mumkin. Garov shartnomasida mazkur huquqni cheklovchi shart o‘z-o‘zidan haqiqiy sanalmaydi. Ayni vaqtda, garovga oluvchi ham litsenziya berish huquqidan foydalanishi mumkin. Agar bu haqda shartnomada garovga qo‘yuvchining to‘g‘ridan-to‘g‘ri roziligi ko‘rsatilgan bo‘lsa. Fuqarolik qonunchiligiga ko‘ra, garovga oluvchi tomonidan tovar belgisidan foydalanish huquqini uchinchi shaxsga berish huquqi sublitsenziya shartnomasi bilan tartibga solinadi. Majburiyatni muqobil bajarishga qaratilgan mazkur fuqarolik-huquqiy usul taraflarning huquq va majburiyatlariga mos bo‘lishi lozim.

Garovga qo‘yuvchi tomonidan tovar belgisidan foydalanish huquqini uchinchi shaxslarga taqdim etilishi natijasida mahsulot sifatining tushib ketganligi uchun garovga qo‘yuvchi garovga oluvchi oldida javobgar bo‘lmaydi. Lekin litsenziat mahsulotining sifati lozim darajada bo‘lmasligi, garovga oluvchiga garovga qo‘yuvchiga nisbatan litsenziya shartnomasini bir taraflama bekor qilishni talab qilishga haqli. Agar garovga oluvchining ushbu talabi bajarilmasa, garovga oluvchi garov shartnomasini bir taraflama bekor qilishga haqli. Shuningdek, ushbu talab garovga oluvchi tomonidan uchinchi shaxslarga taqdim etilgan litsenziya shartnomasiga ko‘ra sifatsiz ishlab chiqarilgan tovarlar bo‘yicha garovga qo‘yuvchi tomonidan e’tiroz bildirilishi va shartnomani garovga oluvchi tomonidan uchinchi shaxslarga nisbatan bekor qilishni talab qilishga haqli. Garovga oluvchi qarzdorning talabini bajarishga majbur. FKning 277-moddasi 4-qismiga muvofiq, garovga oluvchi tovar belgisidan shartnomada nazarda tutilgan hollardagina foydalanishi va bu haqda garovga qo‘yuvchiga muntazam hisobot berib turishi lozim. Mazkur fuqarolik-huquqiy munosabat mazmuniga ko‘ra, taraflarning maqomi shartnoma shartlariga ko‘ra o‘zgaradi. Ya’ni, qarzdor cheklangan vakolat doirasida (faqat mahsulot sifatini ta’minlashga doir) garovga oluvchiga nisbatan kreditor maqomiga ega bo‘ladi.

Garovga oluvchi garov narsasi bo‘lgan tovar belgisiga nisbatan mutlaq huquqdan foydalanish to‘g‘risidagi hisobotda tovar belgisi bilan ishlab chiqarilgan mahsulotning hajmi va uni sotish bahosi, tovarning sotilish hududi, mahsulotning sifati to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks etadi. Mahsulotning sifati garovga qo‘yuvchi (huquq egasi) tovarining sifati bilan garovga oluvchi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning sifati o‘zaro bir xil bo‘lmasa garovga qo‘yuvchi garovga oluvchidan tovar belgisidan foydalanishni to‘xtatishni talab qilishga haqli.

Ta’kidlanganidek, garovga oluvchi tovar belgisidan foydalanish huquqini boshqa shaxslarga taqdim etishi mumkin. Mazkur vakolat garov shartnomasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilgan bo‘lsagina yo‘l qo‘yiladi. Amaldagi fuqarolik qonunchiligida mutlaq huquqlarni garovga oluvchi tomonidan boshqa shaxslarga foydalanish huquqini tartibga soluvchi aniq qoidalar belgilanmagan. Lekin mazmunan, FKning 1036-moddasi talablarini yuzaga kelgan munosabatga nisbatan qonun o‘xshashligi bo‘yicha qo‘llash mumkin. Shunga ko‘ra, garov shartnomasi bo‘yicha taraflarning huquqiy maqomida nisbatan o‘zgarish bo‘ladi, ya’ni garov shartnomasi taraflari bo‘lgan garovga oluvchi va

ISSN 3030-3230

garovga qo‘yuvchi (garov shartnomasi bo‘yicha garovga oluvchi – kreditor, garovga qo‘yuvchi esa – qarzdor, garov shartnomasi bo‘yicha tovar belgisidan foydalanish huquqini olgan garovga oluvchi – qarzdor, garovga qo‘yuvchi – kreditor) bir-biriga nisbatan ham javobgar ham qarzdor hisoblanadi. Bir shartnoma mazmunida paydo bo‘lgan ikki xususiyatdagi fuqarolik-huquqiy munosabatda garchi garovga qo‘yuvchi garovga oluvchiga nisbatan kreditor maqomini bersa ham garov majburiyatini ta’minlash bo‘yicha qarzdor bo‘lib qolaveradi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, litsenziya shartnomasi bo‘yicha litsenziat mahsulotining sifati litsenziarniki bilan bir xil bo‘lishi lozim. Garov shartnomasi bo‘yicha garovga qo‘yuvchi nisbatan zaif tomondir. Qarzdor majburiyatni qanday usulda bo‘lsa ham garov majburiyatini bajarishga harakat qiladi. Buning uchun kreditor faoliyatini nazorat qilish va tovar belgisidan foydalanish to‘g‘risidagi hisobotni talab qilmaydi, mahsulotning sifatiga ko‘z yumadi va h.k. Oqibatda esa mahsulot sifati buzilib, iste’molchining huquq va manfaatlariga salbiy ta’sir qiladi. Demak, mazkur holatlardan kelib chiqib, O‘zbekistonda tovar belgisiga nisbatan huquqlar garovi noodatiy fuqarolik-huquqiy shartnoma sifatida:

birinchidan, garovga qo‘yuvchi tomonidan tovar belgisi qiymatini hisoblab chiqish mezonlari mavjud emas;

ikkinchidan, intellektual mulk bozori ko‘chmas mulk va boshqa moddiy ashyolarni sotish bozoriga nisbatan cheklangan bo‘lib, bu keyinchalik garov narsasini sotishda ma’lum qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi;

uchinchidan, nomoddiy aktivlarni sotishning huquqiy tartib-taomili mavjud emas;

to‘rtinchidan, tovar belgisi garovi shartnomasi uchinchi shaxslar tomonidan sug‘urtalash predmeti hisoblanmaydi [37].

Tovar belgisiga nisbatan mutlaq huquqlar garovi shartnomasining muhim sharti mulkning baholanish layoqatiga egaligidir. O‘zbekistonda tovar belgisini baholashni belgilab beruvchi alohida mezonlar mavjud emas. Lekin ushbu mezonlarning mavjud emasligi tovar belgisiga nisbatan huquqni garovi qo‘yishga monelik qilmaydi. Taraflar ushbu bahoni o‘zaro kelishuv yoki bozor bahosiga ko‘ra belgilashlari mumkin.

Iqtisodiyot sohasiga oid adabiyotlarda tovar belgisini baholash tovar belgisini yaratish va savdoga kiritishdagi xarajatlar, daromad usuli, tovar bozorida o‘xshash tovarlar bilan solishtirish natijasida kelib chiqadigan bozor qiymati [38] kabi uchta asosiy yondashuvga ko‘ra amalga oshiriladi. Garov narsasini baholash garovga qo‘yuvchi bilan garovga oluvchi o‘rtasidagi kelishuvga ko‘ra yoki baholash faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq, garov narsasini baholashdan o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi (“Garov to‘g‘risi”dagi qonunni 10-moddasi).

Garov narsasi bo‘lgan tovar belgisini baholash mezonlari tovar belgisining tovar bozoridagi holatidan (goodwill) kelib chiqqan holda amalga oshirilishi mumkin. Shuni ta’kidlash o‘rinliki, nomoddiy ashyoning qiymati moddiy ashyo qiymatiga nisbatan nobarqaror rivojlanib borish xususiyatiga ega. Moddiy ashyoning qiymatini baholash va uning garov talabini qondirish qiymatini belgilash o‘xshash tovarlarga nisbatan olingan holda belgilanadi. Tovar belgisini baholashda boshqa o‘xshash tovar belgilariga nisbat olishning imkoni yo‘q. Chunki o‘xshash tovar belgisining bozoridagi maqomi va undan keladigan daromadlar hajmi turlichadir.

Xorijiy davlatlar amaliyotida tovar belgilarini baholab borishning xalqaro tizimi mavjud. O‘zbekistonda esa mazkur tizim yuritilmaydi yoki integratsiya qilinmagan. Shu sababli ham tovar belgisining amaldagi qiymatini belgilash imkoni nisbatan chegaralangan. Bu esa, garovga oluvchi uchun garov talabini qondirish qiymatini hisoblab chiqarishda jiddiy xavf-xatarlarni keltirib chiqaradi. Garov talabini qondirishda tovar belgisining muayyan davr mobaynida baholangan qiymatining saqlanib qolinish xavfi moddiy ashyoga nisbatan yuqoridir. Ayrim hollarda, tovar belgisi qiymatining vaqt o‘tgan sayin oshib borishi uning moddiy ashyoga nisbatan ustunligini ko‘rsatadi. Demak, tovar belgisini baholash mezoni ushbu tovar belgisi ostida ishlab chiqarilayotgan tovarning sotilishi hajmi va miqyosi bilan belgilanadi. Ushbu baholash o‘xshash tovarlarning sotilishi bilan aniqlanadi. Lekin, O‘zbekistonda baholash metodlarining qat’iy belgilanmaganligi taraflar uchun tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi.

Demak, tovar belgilari huquqlari garovining o‘ziga xosligi va yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda mutlaq huquqlar garoviga quyidagicha ta’rif berish mumkin:

Mutlaq huquqlar garovi tegishli tartibda muhofazalangan intellektual faoliyat natijasi yoki unga tenglashtirilgan shaxsiylashtirish vositasi egasining ushbu obyektlarga bo‘lgan o‘z huquqlarini garov predmeti sifatida to‘liq yoki

qisman taqdim etish majburiyatini belgilaydigan, tegishli tartibda baholangan, majburiyat hajmi va muddati garov bilan ta'minlangan, haq baravariga va yozma shaklda tuziladigan hamda belgilangan tartibda ro'yxatga olingan fuqarolik-huquqiy munosabat.

O'zbekiston Respublikasi "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi qonunning 27-moddasini quyidagi 5-qism bilan to'ldirish taklif etiladi:

"Tovar belgisiga nisbatan mutlaq huquqlar garovi shartnomasi amalda bo'lgan davrda tovar belgisining egasi undan tovar belgisiga doir guvohnomaning amal qilish muddati tugaguniga qadar voz kechishga yo'l qo'yilmaydi. Taraflarning kelishuviga ko'ra, huquqdan garovga oluvchining foydasiga voz kechish holatlari bundan mustasno".

Mutlaq huquqlar garovida tovar belgisini amal qilish muddatini belgilash unga egalik qiluvchi shaxs bilan bevosita bog'liqligi garovga oluvchining garov majburiyati bo'yicha talab qilish huquqini cheklaydi. Oqibatda kreditorga moddiy zarar yetishiga olib keladi. Shu sababli ham garov huquqini qo'llash bilan bog'liq qonunchilik normalarini mutlaq huquqlar garovini amalga oshirishni cheklaydigan qoidalarni takomillashtirish maqsadida **O'zbekiston Respublikasi "Garov to'g'risida"gi qonunning 19-moddasiga quyidagi mazmunda qo'shimcha kiritish taklif qilinadi:**

Intellektual faoliyati natijalari yoki shaxsiylashtirish vositalariga nisbatan mutlaq huquqlar garovga qo'yilganda, garov shartnomasi bo'yicha qarzdor majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan muddatga qadar mutlaq huquqlarning bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

Mutlaq huquqlarning amal qilish muddatini uzaytirish garovga oluvchining talabi bo'yicha sud qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi "Garov to'g'risida"gi Qonunining 8-moddasiga quyidagicha qo'shimcha kiritish taklif etiladi:

Mutlaq huquqlar garovi shartnomasi bo'yicha garovga oluvchi tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovar mahsulotlarining sifati tovar belgisi egasi (garovga qo'yuvchi) mahsulotining sifati bilan o'zaro muvofiqligini o'rganish raqobat sohasidagi vakolatli organ tomonidan amalga oshiriladi.

Agar garovga oluvchi tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovarning sifati garovga qo'yuvchiniki bilan o'zaro muvofiq bo'lmasa, vakolatli organ garovga qo'yuvchining manfaatlarini ko'zlab garovga oluvchini tovar belgisidan foydalanish huquqini mahrum qilishni so'rab sudga murojaat qilishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi qonunning 27-moddasiga quyidagicha qo'shimcha kiritish taklif etiladi:

Tovar belgisiga nisbatan huquqlar garovi shartnomasida bevosita belgilanmagan bo'lsa, garovga oluvchi uchinchi shaxslarga tovar belgisidan foydalanish huquqini berishga yo'l qo'yilmaydi.

Аннотация. Право на залог с древних времён служило гарантией исполнения человеком взятых на себя обязательств. Объектами гаров считаются материальные предметы различных форм. Однако в последние годы применяется большое количество прав на объекты интеллектуальной собственности, особенно на товарные знаки. Это особенно видно в отношениях между развитыми странами. В данной статье рассматриваются правовые вопросы использования товарных знаков в качестве товарной марки и даются рекомендации по совершенствованию законодательства.

Ключевые слова: залог, товарный знак, США, Германия, абсолютное право, интеллектуальная собственность, Древний Рим, Древний Вавилон, право залога.

Annotation. Since ancient times, the right to pledge has served as a guarantee of a person's fulfillment of his obligations. The objects of gars are considered to be material objects of various forms. However, in recent years, a large number of intellectual property rights, especially trademarks, have been applied. This is especially evident in relations between developed countries. This article discusses the legal issues of using trademarks as a trademark and provides recommendations for improving legislation.

Key words: pledge, trademark, USA, Germany, absolute right, intellectual property, Ancient Rome, Ancient Babylon, pledge right.

ISSN 3030-3230

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mattson K. To the Flag: The Unlikely History of the Pledge of Allegiance //Perspectives on Politics. – 2007. – Т. 5. – № 1. – P. 169-170.
2. Жарова Е.В. Залог исключительного права на результат интеллектуальной деятельности или средство индивидуализации. Дис. … канд. юр. наук. – М.: – 2010. – С. 18.
3. https://president.uz/uz/lists/view/3887
4. https://rospatent.gov.ru/content/uploadfiles/otchet-2019-ru.pdf
5. Масленкова О.Ф. Правовая жизнь: научно-практические заключения, комментарии и обзоры // Вестник Санкт-Петербурского университета. Право. – 2017. – Т. 8. Вып. 1. – С. 109.
6. Баттахов П.П. Залог исключительных прав на объекты промышленной собственности. Международный двуязычный научный журнал. – 2014. – № 7. – С. 10.
7. Вязовская Т.Н. Гражданско-правовая природа залоговых отношений: дис. канд. юрид. наук: 12.00.03, – Краснодар. – 2004. – С. 66.
8. Гульбин Ю.Т. Исключительное права на средства индивидуализации товаров – товарные знаки, знаки обслуживания, наименования мест происхождения товаров: Гражданско-правовой аспект. – М.: Статут. – 2007. – С. 284.
9. Оқюлов О. Интеллектуал мулк ҳуқуқий мақомининг назарий ва амалий муаммолари. Масъул муҳаррир Ҳ.Раҳмонқулов // – Т.: ТДЮИ. – 2004. – Б. 310. 1.27. Оқюлов О. Интеллектуал мулкнинг ҳуқуқий мақоми. Т.: ТДЮИ. Юрид.фан.докт.дисс.... – Б. 126.
10. Имомов Н.Ф. Интеллектуал мулк ҳуқуқининг янги объектлари // Масъул муҳаррир ю.ф.д., проф. О.Оқюлов. –Т.: ТДЮИ нашриёти. – 2011. – Б. 135
11. Ахмаджонов Б.У. Фуқаролик ҳуқуқида мутлақ ҳуқуқлар мазмуни ва уларни амалга ошириш муаммолари. Дисс. ю.ф.н. – Т.: – 2010.
12. Сафоева С.С. Интеллектуал мулк объектларини тижорат муомаласидаги айрим ҳуқуқий муаммолар. Дисс. ю.ф.н. – Т.: – 2008.
13. Оқюлов О. Интеллектуал мулк ҳуқуқий мақомининг назарий ва амалий муаммолари. – Т.: ТДЮИ. – 2004. – Б. 81-82.
14. J. Marshall, R. Caldwell, B. Cain. Taking security over patents. https://united-kingdom.taylorwessing.com /synapse/march14.
15. Livio Esposizione. IP rights and loan financing: European perspective. http://techlaw.org/wp-content/uploads/2011/05/110426_IPrights and loan-inancing 1.pdf?x13654.
16. A.Kukrus, V. Antonova. Valuation of intellectual property as pledge object: theoretical aspects//13th Scientific Conference of Economic Policy. Berlin, Tallinn: BWV*Berliner wissenschaftsverlag GmBH, Mattimar OÜ, 2005. – P. 256.
17. Jie Chen, Zeming Yuan. Research on the Evaluation Pattern of Intellectual Property Pledge Financing//2nd International Conference on Industrial Technology and Management (ICITM 2012) IPCSIT vol. 49 (2012). — IACSIT Press, Singapore, 2012.
18. Bruno Amable, Jean-Bernard Chatelain, Kirsten Ralf. Patents as collateral//Journal of Economic Dynamics and Control. Vol. 34. Issue 6. June 2010. – P. 1104.
19. Белая О.В. Залог имущественных прав: автореф. дис. … канд. юр. наук. М.: Моск. гос. юр. акад., – 2007. – С 28; Борисова Ю.В. Деятельность прокурора по защите прав на объекты интеллектуальной собственности: гражданско-правовой и административно-правовой способы судебной защиты: автореф. дис. … канд. юр. наук. – М.: Акад. ген. прокуратуры Рос. Федерации. – 2014. – С. 30; Жарова Е.В. Залог исключительного права на результат интеллектуальной деятельности или средство индивидуализации: автореф. дис. …канд. психол. наук. – М.: Рос. гос. гуманитар. ун-т. – 2010. – С. 31; Зимин В.А. Правовая природа интеллектуальных прав по законодательству Российской Федерации: дис. … канд. юр. наук. М.: Рос. гос.акад. интеллектуал. собственности. – 2015. – С. 172; Кастальский В.Н. Залог исключительных прав: автореф. дис. … канд. юр. наук. – М.: Рос. гос. ин-т интеллектуал. собственности. – 2006. – С. 27; Каширина Е.И. Развитие методов оценки стоимости товарных знаков российских промышленных предприятий: автореф. дис. … канд. экон. наук. – Ростов н/Д: Ростов. гос. экон. ун-т. – 2010. – С. 26; Кононенко Р.О. Гражданско-правовые способы распоряжения исключительным правом на товарный знак: автореф. дис. … канд. юр. наук. Краснодар: Кубан. гос. аграр. ун-т. – 2011. – С. 26; Крушина О.Г. Залог исключительных прав: автореф. дис. … канд. юр. наук. М.: Рос. гос. интеллектуал. собственности. – 2005. – С. 20.

20. Гражданское право. Учебник. Т. 1. / Е.Н.Абрамов, Н.Н. Аверченко, Ю.В.Байгушева и др. под ред. А.П.Сергеева. –Москва: 2011. РГ-Пресс. – С. 908.

21. Калажатин В.О. Залог исключительных прав // Патенти в лицензии. – 2001. – № 6. – С. 48. Городов О.А. Интеллектуальная собственность: правовое аспекты коммерческого использования // Дисс. док.юр.наук. – СПб., 1999. – С. 244.3

22. Евдокимова В.Н. Правовая квалификация договоров о передаче технологий: проблемы и решения // Патенты и лицензии. – 2004. – № 8. – С. 32-44.

23. Code de la propriété intellectuelle (version consolidée au 23 février 2015). Available at: http://www.wipo.int/wipolex/ru/ text.jsp?file_id=363403 (accessed: 29.01.2017). Dutch Civil Code, Book 3. Available at: http://www. dutchcivillaw.com (accessed: 08.02.2017). Livio Esposizione. IP rights and loan financing: EuroLivio Esposizione. IP rights and loan financing: European perspective. Available at: http://techlaw.org/wp-content/uploads/2011/05/110426_IP-rights-and-loan-financing_1.pdf?x13654 (accessed: 29.01.2017). Loans & Secured Financing 2016 / Contributing editor George E Zobitz Cravath, Swaine & Moore LLP. London: Law Business Research Ltd, 2016. 120 p. Marshall J., Caldwell R., Cain B. Taking security over patents. Available at: https://united-kingdom.taylorwessing.com/ synapse/march14.html (accessed: 29.01.2017).

24. Schwabe J. The Pledge to brand loyalty: A gold medal approach to Rule 40 //Harv. J. Sports & Ent. L. – 2018. – T. 9. – P. 55.

25. Silvia F., Prasastinah U. T. The characteristics of imposition of pledge on the trademark rights in musharakah financing//Studia Humanitatis. – 2019. – № 4. – P. 12.

26. Медведев С.В. Правовое регулирование отношений, связанных с залогом исключительных прав: Автореферат диссертации на соискание ученой степени канд. юрид. наук: 12.00.03. – М. – 2012.

27. Клишина И.В. Заключение договора а залоге исключительного права на объекты интеллектуальной собственности. – Имущественные отношения в Российской Федерации. – 2013. – № 4. – С. 4.

28. Жарова Е.В. Залог исключительного права на результат интеллектуальной деятельности или средство индивидуализации: Диссертация на соискание ученой степени канд. юрид. наук: 12.00.03. – М. – 2010.

29. Wang R. L. et al. A concise framework to facilitate open COVID pledge of non-disclosed technologies: In terms of non-disclosed patent applications and trade secrets //Journal of the Formosan Medical Association. – 2021.

30. Dey A., White J. T. Trade secrets protection and antitakeover provisions. – Harvard Business School, 2019.

31. Contreras J. L. A market reliance theory for FRAND commitments and other patent pledges // Utah L. Rev. – 2015. – P. 479.

32. Никитенко С.М., Месяц М.А., Ловчиков В.П. Интеллектуальный залог: зарубежный опыт и перспективы устойчивого развития экономики региона // «Инновация». – 2018. – № 8 (238). – С. 68.

33. Ikeda M. Basic study on the intellectual property security system in Germany – security systems as distribution and management schemes for intellectual property rights // Institute of intellectual property bulletin. – Tokio, 2008. – P. 141-142.

34. Kingston W. Patent pledges: global perspectives on patent law's private ordering frontier. – 2016.

35. Binctin N. French perspectives on trademark transactions: from the Civil Code to the business law? //The Law and Practice of Trademark Transactions. – Edward Elgar Publishing. – 2016. – P. 410.

36. Масленкова О.Ф. О разработке технологии банковского кредитования под залог объектов интеллектуальной собственности // Аваль. Март-апрель. – 2008. – № 2. – С. 105.

37. Санников А.Г. Оценка брендов и товарных знаков: от теории к практике. М., 1997; Трансакционные издержки, связанные с созданием и использованием прав на товарные знаки в России / Под ред. А.Е. Шаститко. – М., 2000. – С. 64-67.

ISSN 3030-3230

XOTIN-QIZLARGA NISBATAN SODIR ETILADIGAN TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIKLAR PROFILAKTIKASINING HUQUQIY ASOSLARI

Maxtumova Yulduz Botir qizi,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Xotin-qizlarni zulm va zo‘ravonlikdan himoya qilishning huquqiy asoslari mamlakatdan mamlakatga farq qilishi mumkin, ammo global miqyosda bu masala bo‘yicha bir qancha muhim xalqaro huquqiy hujjatlar mavjud. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, turli qonun va me’yoriy-huquqiy hujjatlar, xalqaro shartnomalardan boshlab bu masala muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi Konstitutsiyamizda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa xalqaro hujjatlarda belgilangan inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi xalqaro standartlar, xususan, gender tengligi qoidalari o‘z ifodasini topgan. Xususan, Bosh Konstitutsiyamizda O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga ega ekanligi, xotin-qizlar va erkaklar tengligi, nikoh nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanishi me’yorlari mustahkamlangani gender tengligining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari kafolatlanganidan dalolatdir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida xotin-qizlar himoyasi ta’minlangan, jamiyat va davlatning gender tengligini ta’minlashga qaratilgan normalari mavjud.

Kalit so‘zlar: xotin-qizlar, Konstitutsiya, huquqiy asoslar, teng huquqlilik, Diskriminatsiya, huquqiy normalar, xotin-qizlarning huquqlari.

Xotin-qizlarning huquq va erkinliklari har bir davlatda o‘ziga xos tarzda belgilangan bo‘lsada, ammo ular insonning umumiy huquqlari va erkinliklarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bilan birga aynan xotin-qizlarning o‘zlariga tegishli bo‘lgan gender tengligi, davlat va jamiyat hayotida hech bir istisnolarsiz faol ishtirok etish hamda tazyiq va zo‘ravonliklardan himoyalanish singari maxsus huquqlarini ta’minlash alohida ahamiyat kasb etadi.

So‘ngi yillarda mamlakatimizda gender tengligini ta’minlash, xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning oldini olish hamda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish bilan bog‘liq ko‘plab qonunchilik hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi hamda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi [1] farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-yanvardagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qonunchilik hujjatlari qabul qilindi.

Shu bilan birga bugungi kunda mamlakatimizda gender tengligini davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida ta’minlash, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish bilan bog‘liq qator muammolar bo‘y ko‘rsatmoqda.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining ma’lumotlariga ko‘ra, Xotin-qizlar erkaklar bilan mehnat bozorida teng ishtirok etganlarida edi, O‘zbekiston milliy daromadi qariyb 29 %ga oshgan bo‘lar edi. Ishlaydigan xotin-qizlar erkaklar oladigan ish haqiga yetsalar edi, daromad ortishi 700 mingdan ortiq odamni kambag‘allikdan olib chiqar edi[2]

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklar profilaktikasining samaradorligi bu boradagi faoliyatning qay darajada huquqiy ta’minlanganligiga ko‘p jihatdan bo‘liq hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklar profilaktikasiga oid turli qonunchilik hujjatlari amal qiladi Xususan bu borada quyidagilarni ko‘rib chiqish mumkin:

Xalqaro hujjatlar. Yangilangan Konstitutsiyamizning 15-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismi ekanligi belgilab qo‘yildi shu

munosabat bilan xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklar profilaktikasi oid O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro hujjatlar endilikda huquqni qo‘llash amaliyotida to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladi. [3]

O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 6-maydagi qaroriga binoan 1979-yil 18-dekabr Nyu-Yorkda qabul qilingan “Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida” konvensiyaga qo‘shilgan.

Mazkur Konvensiyada “xotin-qizlarning kamsitilishi” tushunchasiga har qanday farq jinsiy belgilariga ko‘ra istisno qilish, cheklash, tan olmaslik, yo‘qqa chiqarish yoki bo‘shashtirishga yo‘naltirilgan, ayollar foydalanayotgan yoki amalga oshirayotgan har qanday siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqaroviy va boshqa sohada oilaviy sharoitidan qati nazar erkak va ayollarga tenglik asosida inson huquqlari va asosiy erkinliklar berilishi sifatida tasvirlangan.

Ushbu Konvensiyaning 2-moddasiga asosan erkaklar bilan ayollar o‘rtasidagi tenglik tamoyilini, agarda bu hozirgacha qilingan bo‘lmasa, milliy Konstitutsiyaga va boshqa tegishli qonunlarga kiritish hamda qonun va boshqa tegishli vositalar yordamida ushbu tamoyilni amaliyotga joriy etishni ta’minlashi lozim shuningdek ushbu konvensiyaning 11-moddasiga ko‘ra, Ayollarning turmushga chiqmaganligi yoki onaligi sababli kamsitilishining oldini olish va ularga mehnat qilishning samarali huquqlarini kafolatlash maqsadida, ishtirokchi-davlatlar quyidagilarni amalga oshirish uchun tegishli choralarni ko‘radilar, homiladorlik sababli ishdan bo‘shatishni yoki homiladorlik va tug‘uruq bo‘yicha ta’tilga chiqarishni yoxud oilaviy ahvol tufayli kamsitishni sanksiyalar qo‘llanish tahdidi ostida man etiladi.[4]

1997-yil 30-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi “Ayollarning siyosiy huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga qo‘shilish to‘g‘risida” qaror qiladi: Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida e’lon qilingan erkaklar va ayollar o‘rtasida tenglik tamoyilini amalga oshirishni istagan holda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga muvofiq ayollar va erkaklarning siyosiy huquqlardan foydalanishdagi maqomini tenglashtirishni istagan holda ushbu konvensiya qabul qilingan Ushbu konvensiyaga asosan erkaklar va ayollar bir xil qiymatga ega bo‘lgan mehnat uchun teng rag‘batlantirishlari belgilab qo‘yildi.[5]

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir qator normalarida xotin-qizlarni himoya qilishga oid masalalar belgilangan. Jumladan, Asosiy qonunning 42-moddasida “Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanish huquqiga ega. Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta’minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi. Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo‘shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi”deb belgilab qo‘yilgan[3].

Konstitutsiyaning 58-modda esa xotin-qizlar va erkaklar teng huquqli ekanligi, davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlanishi belgilab qo‘yilganligi ko‘rsatilgan.

Mehnat kodeksining 119-moddasiga ko‘ra, homiladorlik yoki farzandlar borligi bilan bog‘liq sabablarga ko‘ra ishga qabul qilmaslik g‘ayriqonuniy ravishda rad etish deb hisoblanishi belgilangan. Bundan tashqari, Mehnat kodeksining 392-moddasiga ko‘ra, homiladorligi yoki farzandi borligi bilan bog‘liq sabablarga ko‘ra ishga qabul qilishni rad etish yoki mehnatga haq to‘lash miqdorini kamaytirish ham taqiqlanishi ham belgilangan. Bundan tashqari, ayolni homiladorligi yoki shaxsni yosh bolani parvarish qilayotganligini bila turib, uni ishga olishdan g‘ayriqonuniy ravishda bosh tortish yoki ishdan bo‘shatish to‘g‘ridan-to‘g‘ri jinoiy javobgarlikka sabab bo‘lishi ham belgilangan. Shu bilan bir qatorda, ushbu kodeksning 129-moddasiga ko‘ra, homilador ayol, 3 yoshga to‘lmagan bolasi bor ayol yoki 3 yoshga to‘lmagan bolani yolg‘iz o‘zi tarbiyalayotgan ota (vasiy)ishga qabul qilinganda dastlabki sinov belgilanmasligi aniqlashtirib berilgan. Muhim jihatlardan yana biri, yangi Mehnat kodeksining 149-moddasiga ko‘ra, xodim sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra xodimni vaqtincha boshqa ishga o‘tkazish, homilador ayolni, shuningdek ikki yoshga to‘lmagan bolasini parvarishlayotgan ota-onadan

ISSN 3030-3230

birini (vasiyni) ularning avvalgi ishni bajarish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda vaqtincha boshqa ishga o‘tkazish haqida buyruq chiqarish uchun ularning arizasi va tibbiy xulosa asos bo‘ladi.

Shuningdek, Mehnat kodeksining 394-moddasiga ko‘ra, tibbiy xulosaga muvofiq homilador ayollarning ishlab chiqarish normalari, xizmat ko‘rsatish normalari avvalgi ishlaridagi o‘rtacha oylik ish haqi saqlangan holda kamaytiriladi yoki ular yengilroq ishga yoxud noqulay ishlab chiqarish omillarining ta’siridan xoli bo‘lgan ishga o‘tkazilishi ham belgilangan.

E’tiborli tomonlardan biri, ushbu kodeksning 163-moddasiga ko‘ra, homilador ayollar (ushbu kodeksning 408-moddasi) va 3 yoshgacha bolasi bo‘lgan xodimlar (ushbu kodeksning 409-moddasi) uchun kafolatlar berishni nazarda tutadigan talablarga rioya qilmasdan ish beruvchining tashabbusi ya’ni MK 161-moddasiga ko‘ra bekor qilish taqiqlanadi deb qat’iy belgilangan Mehnat kodeksining 408-moddasi 1-qismiga ko‘ra,homilador ayollar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko‘ra bekor qilishga yo‘l qo‘yilmaydi, bundan tashkilot (uning alohida bo‘linmasi) tugatilgan yoki yakka tartibdagi tadbirkorning ish faoliyati tugatilgan hollar mustasno deb ko‘rsatilgan.E’tiborli jihatlardan yana biri, yangi Mehnat kodeksining 186-moddasiga ko‘ra, ish beruvchi ushbu Kodeksning 398-moddasiga muvofiq homilador ayolning, 14 yoshgacha bo‘lgan bola (o‘n olti yoshgacha bo‘lgan nogironligi bo‘lgan bola) ota-onasidan birining (ota-onaning o‘rnini bosuvchi shaxsning), shuningdek oilaning betob a’zosini parvarishlashni amalga oshirayotgan shaxsning iltimosiga ko‘ra tibbiy xulosaga binoan to‘liqsiz ish kunini belgilashi shartligi belgilandi.Yana bir muhim o‘zgarish, Mehnat kodeksining 228-moddasiga ko‘ra, ayollarga — homiladorlik va tug‘ish ta’tilidan oldin yoki undan keyin xodimning xohishiga ko‘ra har yilgi mehnat ta’tili unga qulay bo‘lgan vaqtda berilishi belgilangan.

Shuningdek, ayollarga ularning xohishiga ko‘ra, bolasi uch yoshga to‘lguniga qadar uni parvarishlash uchun ish haqi saqlanmagan holda qo‘shimcha ta’til ham berilishi qat’iy norma sifatida belgilangan. Muhim o‘zgarish sifatida, yangi Mehnat kodeksining 466-moddasiga ko‘ra, homilador ayollarni vaxta usulida bajariladigan ishlarga jalb qilish mumkin emasligini e’tirof aytib o‘tish mumkin.[5]

Xulosa qilib aytganda,yangi Mehnat kodeksiga ayollarning mehnat huquqlarini himoya qiluvchi bir qator yangi normalarning kiritilganligi, bu o‘z navbatida, yurtimizda ayollar mehnatini huquqiy jihatdan himoya qilishni davlatning muhim masalalaridan biri sifatida katta e’tibor berilayotganidan yaqqol darak beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ham xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarga nisbatan qator jinoiy javobgarliklar nazarda tutilgan. Jumladan, 148-moddasiga ko‘ra, ayolni homiladorligi yoki shaxsni yosh bolani parvarish qilayotganligini bila turib, uni ishga olishdan g‘ayriqonuniy ravishda bosh tortish yoki ishdan bo‘shatish bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravarigacha miqdorda jarima yoki 3 yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud 3 yilgacha ahloq tuzatish ishlari bilan jazolanishi belgilangan.[6]

2023-yil 11-apreldagi 829-sonli O‘zbekiston Respublikasi **“Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”**gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunga ko‘ra qator normativ huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining ayrim moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi va bir necha moddalar kiritildi. Ushbu qonunga asosan Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilish maqsadida, Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga 126^1-modda. “Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik”, 128^1-modda. “O‘n olti yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxs bilan moddiy qimmatliklar berish yoki mulkiy yoxud boshqacha tarzda manfaatdor etish orqali jinsiy aloqa qilish”, 141^3-modda. “Shaxsning sha’nini va qadr-qimmatini kamsituvchi hamda inson hayotining sir tutiladigan tomonlarini aks ettiruvchi ma’lumotlarni oshkor qilish” kabi moddalar kiritildi.[7] Shuningdek ushbu qonunga asosan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 17-58-661-73-104-109-110-118-121-129-130^1 moddalariga Xotin-qizlarga nisbatan sodir etilayotgan tazyiq va zo‘ravonliklarning oldini olish maqsadida o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi **Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi** kodeksiga ham “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun

hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonuniga asosan qator o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan jumladan 41^{1}-modda. “Shahvoniy shilqimlik qilish” , 59^{2}-modda. “Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik” kabi moddalar bilan to‘ldirildi.[8] O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida himoya orderi talablarini buzganlik uchun ham javobgarlik belgilangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 206^{1}-modda. “Tazyiq o‘tkazgan va (yoki) zo‘ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo‘lgan shaxs tomonidan himoya orderi talablarini bajarmaslik”deb nomlanadi va unda shunday belgilangan “Tazyiq o‘tkazgan va (yoki) zo‘ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo‘lgan shaxs tomonidan himoya orderi talablarini bajarmaslik, - bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o‘n besh sutkagacha muddatga ma’muriy qamoqqa olishga sabab bo‘ladi.”[9] O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksidagi ushbu moddaga asosan IIB xodimlari tomonidan xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik o‘tkazgan shaxslarga nisbatan javobgarlik belgilangan.

2019-yil 2-sentyabr kuni “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun [10] O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan bo‘lib, unda “jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka doir murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilinishini ta’minlash, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniylikni mustahkamlash” xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan etib belgilangan.

2017-yil 7-fevral kunidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ta ustuvor yo‘nalishi harakat strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoniga asosan mamlakatimizda xotin-qizlarning haq-huquqlarini kengaytirish va davlat ahamiyatiga molik yechimini topishi lozim bo‘lgan masala sifatida qaratila boshlandi va qator qonun va farmonlar qabul qilindi.[11] Jumladan, 2024-yil 10-may kunidagi “Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi [12] O‘zbekiston Respublikasi Prezident qarori qabul qilindi unda ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarga oila — mahalla — tuman va hudud tamoyili asosida kompleks ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimini joriy etish to‘g‘risidagi taklifi maqullandi. 2021 yil 20-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan ayollarni reabilitatsiya qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori,[13] hamda 2021 yil 7-oktyabrdagi “Zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirishni takomillashtirish hamda o‘z joniga qasd qilishning oldini olishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori [14] zulm va zo‘ravonlikdan aziyat chekkan, o‘z joniga qasd qilishga yoki o‘z joniga qasd qilishga moyil bo‘lgan ayollarga yordam ko‘rsatish va ularni manzilli qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish maqsadida qabul qilingan va ushbu qarorlarga asosan Zo‘ravonlik va zo‘ravonlikdan jabrlanganlarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi negizida 28 ta viloyat va tumanlararo namunaviy markazlarni tashkil etildi. 2022-yil 31-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, “Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qaroriga [15] asosan Ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og‘ir, ishsiz va ijtimoiy faol bo‘lmagan xotin-qizlar bilan “Ayollar daftari”ni yuritish orqali ishlash tizimini yanada takomillashtirish, ularni ijtimoiy — huquqiy, psixologik, tibbiy va moddiy qo‘llab-quvvatlash, shuningdek. “Ayollar daftari” ro‘yxatiga kiritilgan xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish maqsadida tuman (shahar) hokimliklarida yuridik shaxs bo‘lmagan, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari shaklidagi “Ayollar daftari” ro‘yxatiga kiritilgan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi T.K.Narbayeva o‘zining “O‘zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini oshirishning innovatsion modeli”nomli doktorlik dissertatsiyasida xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish va gender tenglikning huquqiy asoslari, xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish mamlakatda gender tenglikni ta’minlashning muhim shartlaridan biri ekanligi, xotin-qizlar bandligini ta’minlashda gender tenglik qoidalariga rioya qilishning mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati

ISSN 3030-3230

masalalari ilmiy tadqiq etgan[16;71-b]

Tadqiqotning usullari: Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklar profilaktikasining huquqiy asoslari mavzusini o‘rganishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo‘llaniladigan usullardan foydalanildi. Mavzu yuzasidan Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklar profilaktikasining huquqiy asoslari haqida huquqiy, iqtisodiy adabiyotlarni hamda statistik ma’lumotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish va tahlil etish usulidan foydalanildi. Shuningdek, olimlarning ilgari surgan fikrlari, Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklar profilaktikasining huquqiy asoslarini tahlil qilish bo‘yicha bugungi kundagi muammolar va ularni hal etish imkoniyatlarni o‘rganish uchun aralash usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida umumlashtirish, taqqoslash ilmiy tadqiqot usullaridan hamda tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

Yurtimizda ko‘plab Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish hamda tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin qizlarga ma’naviy, moddiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yordam berish to‘g‘risida ko‘plab qonunlar. Qaror va farmoyishlar qabul qilingan bo‘lsa-da ushbu tizimda va qonunchiligimizda kamchiliklar yo‘q emas. Shuningdek chet el qonunchiligida ham Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida hamda zo‘ravonlik to‘g‘risida turli xil ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va ushbu sohadagi qator kamchiliklar ko‘rsatilgan. Rossiya Federatsiyasi yuridik fanlar doktori A.V.Ravnyushkin, o‘zining “Ichki ishlar organlari tomonidan oilaviy-maishiy munosabatlar sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga chek qo‘yishning Ma’muriy-huquqiy vositalari” doktorlik dissertatsiyasida “Jismoniy shaxslarning oilaviy-maishiy munosabatlar sohasidagi qonunga xilof xatti-harakatlariga chek qo‘yish bo‘yicha ichki ishlar organlari faoliyati tartibi to‘g‘risidagi aniq normativ hujjatlarning yo‘qligi ichki ishlar xodimlarini o‘z xohishiga ko‘ra harakat qilishga majbur qiladi, bu esa qonun buzilishi, fuqarolarning huquq va erkinliklarining buzilishi holatlariga olib kelishi mumkin. Hozirgi vaqtda mazkur sohada huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga chek qo‘yish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi subyektlarning vakolatlarini belgilovchi normalar tizimli xususiyatga ega emasligi, o‘zaro izchil bog‘liqlikdan aziyat chekmoqda. Bu o‘rganilayotgan muammoga tizimli yondashish zarurligini ko‘rsatadi,” [17; 71-b]

Yana bir Rossiya yuridik fanlar doktori D.A.Gnilitskaya “ Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 133-moddasida nazarda tutilgan jinoiy qilmishni kvalifikatsiya qilish uchun jinoyatchi o‘z maqsadiga erishish uchun qanday qaramlikdan foydalanganligi muhim emasligi sababli, biz bu ham ijtimoiy, ham psixologik bo‘lishi mumkin, deb hisoblaymiz. qaramlikdan majburlash usuli sifatida foydalanish, agar qaramog‘ida bo‘lgan shaxsga majburlangan shaxsga va (yoki) uning qarindoshlariga nisbatan qonunga xilof harakat qilish bilan tahdid qilingan bo‘lsa, sodir bo‘lishi mumkin. Boshqa tomondan, bunday tahdidlarni faqat jabrlanuvchi u yoki bu tarzda qaram bo‘lgan shaxslar tomonidan amalga oshirish imkoniyatini qisqartirish asossiz ko‘rinadi. Shunday ekan, qonunga xilof qilmishni sodir etish bilan tahdid qilish, jabrlanuvchining jinoyatchiga qaramligi yoki qaramligidan qat’i nazar, jinsiy harakatlarga majburlash usuli sifatida tan olinishi kerak. Shu sababli, jinsiy xarakterdagi xatti-harakatlarga majburlash usullari ro‘yxatini kengaytirib, “moddiy yoki boshqa qaramlikdan foydalanish” kabi majburlash usuli o‘rniga, “qonunga zid harakat qilish bilan tahdid qilish” kabi usulni nazarda tutish tavsiya etiladi”deya o‘z mamlakati qununchiligidagi kamchiliklarni keltirib o‘tgan. .[18;15-b]

O‘z qonunchilik tizimimizga qaytadigan bo‘lsak, 2019-yil 2-sentabr kuni “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun haqida to‘xtalamiz. Ushbu qonunning 23^{1}-moddasida belgilanganidek “Himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish. Tazyiq va zo‘ravonlik yoki ularni sodir etish xavfi bartaraf etilmagan taqdirda, Tegishli hududda tazyiq va zo‘ravonlikning yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan ichki ishlar organining mansabdor shaxsi tomonidan tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchining arizasiga ko‘ra, bir ish kuni ichida himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish bo‘yicha materiallar tayyorlanadi hamda himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi iltimosnoma rasmiylashtirilgan holda jabrlanuvchining yashash joyidagi jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudiga yuboriladi. Himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi iltimosnoma materiallar kelib tushgan paytdan e’tiboran yigirma to‘rt soat ichida yopiq sud majlisida jabrlanuvchi hamda tazyiq o‘tkazgan va (yoki) zo‘ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo‘lgan shaxs hozirligida ko‘rib chiqiladi. Iltimosnomani

sudda ko‘rishda advokat ishtirok etishi mumkin. Jabrlanuvchining hamda tazyiq o‘tkazgan va (yoki) zo‘ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo‘lgan shaxsning sud majlisiga kelishi ichki ishlar organi xodimi kuzatuvi ostida amalga oshiriladi. Tazyiq o‘tkazgan va (yoki) zo‘ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo‘lgan shaxsning sud majlisida uzrsiz sabablarga ko‘ra hozir bo‘lmaganligi ishni ko‘rib chiqishga monelik qilmaydi. Agar sud mazkur shaxsning sudda hozir bo‘lishini shart deb topsa, sud uni majburan olib kelish to‘g‘risida ajrim chiqarishi mumkin. Sudya ish materiallari bilan tanishib chiqqanidan keyin himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish to‘g‘risida yoki himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi iltimosnomani qanoatlantirishni rad etish haqida qaror chiqaradi. Himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi qarorda quyidagilar ko‘rsatiladi:

-himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan vaqt va joy haqidagi ma’lumotlar, qarorni qabul qilgan sudning nomi, sudyaning, taraflarning, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning familiyasi, ismi va otasining ismi;

-tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchining hamda tazyiq o‘tkazgan va (yoki) zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi, tug‘ilgan sanasi va joyi, mashg‘ulotining turi hamda yashash joyi;

-himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi qarorni qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan holatlar;

-tazyiq o‘tkazgan va (yoki) zo‘ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo‘lgan shaxsga nisbatan qo‘llanilgan, ushbu Qonunning 26-moddasida nazarda tutilgan cheklovlarning ro‘yxati.

Sudning himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi qarori o‘qib eshittirilgan paytdan e’tiboran kuchga kiradi va ichki ishlar organlari tomonidan darhol ijro etiladi. Sudya tazyiq o‘tkazgan va (yoki) zo‘ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo‘lgan shaxsga qaror ustidan shikoyat qilish tartibi va muddatini, shuningdek himoya orderi talablarini hamda ularni bajarmaslik oqibatlarini tushuntiradi. Qarorning ko‘chirma nusxasi tazyiq va zo‘ravonlikning yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan ichki ishlar organining mansabdor shaxsiga, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchiga, shuningdek tazyiq o‘tkazgan va (yoki) zo‘ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo‘lgan shaxsga darhol topshiriladi. Agar ular sud majlisiga kelmagan bo‘lsa, qarorning ko‘chirma nusxasi bir sutka ichida pochta orqali taraflarga yuboriladi. Sudning himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi yoki himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi iltimosnomani qanoatlantirishni rad etish haqidagi qarori ustidan tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchi, tazyiq o‘tkazgan va (yoki) zo‘ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo‘lgan shaxs, agar ishda ishtirok etgan bo‘lsa, ularning advokati, qonuniy vakili tomonidan 72 soat ichida apellatsiya tartibida shikoyat qilinishi mumkin. Himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi qaror ustidan shikoyat qilinishi uning ijro etilishini to‘xtatib turmaydi. Himoya orderi talablarining bajarilishi ustidan nazorat ichki ishlar organi tomonidan amalga oshiriladi.Ushbu yuqorida ko‘rsatilgan holatda faqat bir oy muddat ichida himoya orderi talablari buzilish holatlaridagina amal qiladi lekin himoya orderi bir oy muddatda buzilmasdan oradan ko‘p vaqt o‘tmasdan takroran berilish holatlari ham tez-tez uchrab turadi. Ushbu esa jabrlanuvchining viktimalogik holati yuqoriligini ko‘rsatadi. Ushbu holatda ham bir yil davomida takroran bir jabrlanuvchi xotin-qiz aynan o‘sha tazyiq o‘tkazuvchi tomonidan jabrlangan taqdirda ushbu holatda ham sud tomonidan himoya orderini bir yil muddatga uzaytirilish maqsadga muvofiq bo‘ladi va bu berilayotgan himoya orderining va takroran berilayotgan himoya orderlarining soni sun’iy tarzda o‘sishining oldini olgan bo‘lar edi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 23-avgust kunidagi “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyati samaradorligini baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 536-sonli Qarorida,[19] sektorlarga belgilangan vazifalari natijasi 60 % hamda sohaviy baholash natijalari 40 % bilan baholanishi belgilangan.

60 % li baholash reytingida; (Umumiy 100 ball)

Hokim yordamchilarining KPI 20 ball,

Yoshlar yetakchilarining KPI 20 ball,

Ayollar faoli KPI 20 ball,

Sektor hududida sodir etilgan jinoyatlar 15 ball,

Sektor rahbarining tashabbusi bilan qilingan ishlar 15 ball

Mahalla raislaridan so‘rovnomalar 5 ball,

Ilm.argos TEST natijalari 5 ballni tashkil

ISSN 3030-3230

etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasining 05.07.2022 yildagi “Tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo‘limlari to‘g‘risida”gi 40/2-sonli buyrug‘iga ko‘ra, xotin-qizlar faoli KPI si 6 ta yo‘nalish va 9 ta indikator ko‘rsatkichlar bo‘yicha amalga oshirilishi hamda mazkur indikatorlar uchun 100 ballik vazn asosida hisoblanadi. Shulardan biri;

Ayollarni tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rishini o‘tgan yilga nisbatan qisqartirish darajasi (1000 nafar ayolga nisbatan) 7 ball (foiz hisobida) hisobida hisoblanadi.

Bugungi kunida amaliyotda, xotin qizlar faollari tomonidan ushbu ko‘rsatkich tufayli xotin-qizlarga nisbatan sodir etilgan ko‘plab jinoyatlar latentligicha qolib kelmoqda shahar-tuman IIB HPB profilaktika inspektorlar tomonidan tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan ayollarga himoya orderlari berish orqali dastlabki profilaktik ta’sir chorasi sifatida tizimli ravishda ishlarni tashkil etib, xotin-qizlarni jinoyat va huquqbuzarliklardan jabrlanishini oldi olinmoqda.

Bu esa o‘z navbatida sektor rahbarlarining reyting ko‘rsatkichlariga ta’sir qilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xotin-qizlar faoli KPI sidan “Ayollarni tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rishni o‘tgan yilga nisbatan qisqartirish darajasi” ko‘rsatkichini olib tashlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

MUHOKAMA: Zo‘ravonlikni boshqa shaxsga nisbatan qasddan jismoniy zo‘rlik ishlatib, shaxsning sog‘lig‘i yoki hayotiga zarar yetkazishga qaratilgan jismoniy daxlsizligini buzishda namoyon bo‘ladi. Lekin, bunday holatda jabrlanuvchiga ruhiy ta’sir ko‘rsatishni ham inkor qilmaydi. Jismoniy zo‘ravonlikni urish, tepish, sog‘liqqa zarar yetkazish, qamab qo‘yish orqali ta’sir ko‘rsatishdir deb o‘ylaymiz. Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikni oldini olishda bir qator jiddiy muammolar mavjud. Bu muammolarni hal qilish uchun huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillarni hisobga olish zarur. Quyidagi asosiy muammolarni ko‘rib chiqish mumkin.

